

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**BUXARBAYEV YOQUB MAMASOLIEVICH
O‘RTA OSIYO XATTOTLIGI DEVONIY YOZUVI TARIXI
VA TARAQQIYOTI**

Toshkent – 2021

Ushbu risolada O'rta Osiyoda islom dini ta'sirida shakllangan va taraqqiy topgan xattotlik namunalari o'rganilgan, suls va riqo xatlarining paydo bo'lishi, rivoji va ommalashuv omillari va ishlatish darajasi tadqiq qilingan. Ushbu risola keng o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar, magistrlar va tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

1.	
2.	

Ushbu risola Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy Kengashining 2021-yilavgustdagisonli yig'ilishida nashrga tavsiya qilingan.

Kirish

O'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixi, boy ilmiy-ma'naviy merosi, adabiyot va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlar qo'lyozma manbalarda aks etgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ilmiy-tarixiy va madaniy merosni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Istiqlool ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy jabhadagi tub burilishlarga, umidbaxsh yangilanishlarga zamin yaratdi. Milliy tariximiz, ma'naviyatimiz hamda ajdodlarimiz yaratgan qo'lyozma manbalarni chuqur o'rganmay turib, xalqimizning buguni va kelajagini qurish mumkin emas. Shu sababli uzoq yillar tabarruk nomi va shoni pinhon tutilgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini tiklash masalasiga mustaqillik yillarida alohida e'tibor berildi. Bu xayrli ishlarning ahamiyati haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida: "Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olim-u ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlardan bugungi davr o'rta qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'la turib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish,

xalqimizga, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olishimiz kerak", - deya g'oyat dolzarb masalani kun tartibiga qo'yadi.

Ajdodlarimizning bebaho ma'naviy merosini o'rganish va xalqimizni tanishtirish katta sharaf bo'lish bilan birga davr talabi hamdir. Jumladan, noyob qo'lyozmalarni bizgacha yetib kelishida o'zining ulkan hissasini qo'shgan xattot va kotiblarning faoliyati, foydalangan xat turlari o'rganilmasdan turib, ma'naviy merosimizning tadqiq qilinishi, masalaga bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Zero, xat turi orqali asar tarixi aniqlanadi. Shunday ekan, yozuv tarixi haqida qisqacha izoh berish lozim topildi.

Binobarin, o'zligini anglagan kishi hayot mazmunini, inson qadr-u qimmatini tobora teranroq anglay boshlaydi, bevosita ichki bir da'vat va ilohiy quvvat bilan ma'naviy yetuklikka, komillikka intiladi. Bu – mustaqillik bergan ilohiy ne'mat.

Bu yorug' dunyoga kelgan oqil insonning maqsadlaridan eng muqaddami hayotning mashaqqatli sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tish, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazib, ona zaminning bundan-da obod, bundan-da ko'rkamroq bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bunga ilm-u ma'rifat orqaligina erishiladi. Bilim olish yo'lidagi dastlabki bosqich xat yozishni o'rganishdan boshlanadi. Boshlang'ich ta'limning asosiy vositasi ham, dastlabki bosqichi ham xat yozishdir.

Ajdodlarimizdan shunday naql qolgan: "Ilm ov qilib tutilgan jonivorga o'xshaydi, u kitobat (yozib qo'yish) bilan bog'lab qo'yiladi". Yana birlari esa: "Har qanday ilm daftaringga yozilmas ekan, u zoye bo'lur",- degan ekanlar.

Darhaqiqat, ilm egallashning o'zi bo'lmaydi. Uni asrash va keyingi avlodlarga to'liq yetkazish yana-da mas'uliyatliroqdir. Zero, ilm omonatdir. Shu sababli ajdodlarimiz olgan ilmlarini yodda saqlash bilan bir qatorda uni o'zlaridan keyingilarga yetkazish maqsadida kitoblar yozib qoldirganlar.

Kitoblar tushunarli bo'lishida husnixat qonun-qoidalariga jiddiy ahamiyat berganlar. Necha o'n asrlardan buyon ilm-u irfon mualliflarning qo'lyozmalari yoki ulardan keyingi mohir xattotlar tomonidan ko'chirilgan kitoblar orqali bizgacha yetib keldi. Hamma zamonda ham husnixatga juda katta e'tibor berilgan. Bu an'ana to bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Ajdodlarimizning bebaho meroslarini o'rganish, ular qoldirgan asarlar bilan xalqimizni tanishtirish esa katta sharaftir.

Xattotlik va kitobat san'ati Mashriqzamin aholining uzoq asrlik madaniy-tarixiy merosida alohida o'rin egallaydi. Markaziy Osiyo xalqi tomonidan islom dinining qabul qilinishi arab yozuvining ham kirib kelishiga sabab bo'ldi. Natijada, arab yozuvi VII asrdan bu xalq uchun ilmfan va davlat ishlarida yagona rasmiy yozuv sifatida o'rin egalladi.

Mashhur xattotlar xatlarining chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab harflarining har biriga oro berishga, husn kiritishga va ularni go'zallashtirishga harakat qilganlar. Arab harfi bilan yoziladigan 36 ta xat shakli mavjud. Ta'kidlash joizki, husnixat bilan bitilgan arab yozuvi kishilarni hayajonga solib, ularga yuksak zavq-shavq bag'ishlashi bilan dunyodagi boshqa xalqlar yozuvidan ajralib turadi. Bu san'at qadim zamonlardan beri husnixat (kalligrafiya) nomi bilan shuhrat qozongan. O'rta asrlarda hali kitob chop etish ixtiro qilinmagan davrda har qanday asar qo'lda ko'chirilib, kitobat qilingan. Kitob ko'chirish ilm darajasidagi hunar hisoblanib, bu ish bilan shug'ullangan kishilar xattotlar va kotiblar nomi bilan mashhur bo'lganlar. Ularning har biri o'z zamonasining ma'rifatli madaniyat arbobi sanalgan. Tabiiyki, zarrinqalam xattotlar yozgan har qanday xat san'at mo'jizasi kabi o'lmas asar hisoblangan.

Dunyodagi barcha ilohiy, muqaddas kitoblar, qomusiy, tarixiy, ilmiy, adabiy, ma'rifiy asar va to'plamlar mana shu xattot(kalligraf)larning mashaqqatli mehnatlari sabab bizgacha yetib kelgan, nodir merosimiz asrlar osha avloddan avlodga o'tib yashab kelgan. Ilgari maktablarda bolalarga

Haftiyak, Qur'on, Chor Kitob, Hofiz, Navoiy, Bedil asarlari va So'fi Olloyorning "Maslak ul-muttaqin" kabi mumtoz ma'rifiy asarlaridan ta'lim berilib, o'qish jarayonida mazkur kitoblar savodli o'quvchilarga ko'chirtirilgan va shu yo'l bilan keyingi avlod qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Zotan, Markaziy Osiyo xalqining taxminan 15 asrlik ilmiy-adabiy, tarixiy-qomusiy merosi bizning davrimizgacha, asosan, qo'lyozma shaklida yetib kelgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, qadimiy madaniy merosimiz va qadriyatlarimizni o'rganishga keng yo'llar ochildi. Milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni o'rganish va tadqiq etish, o'tmishda yashab o'tgan mutafakkir va allomalarning ilmiy-falsafiy va diniy-axloqiy qarashlaridan xalq ommasini bahramand etish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Xattotlik san'atiga oid ilmiy adabiyotni mazmun jihatdan ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi, qadim zamonlardan beri Sharq xattotlari va olimlari tomonidan yaratilib kelingan xat va xat san'ati haqidagi risolalar. Ikkinchisi esa xattotlar haqidagi risolalar, alohida xattotlik va badiiy qo'lyozmalar to'g'risidagi tadqiqotlardir. Shu mavzuga oid ilmiy izlanishlar talaygina bo'lsa-da, Buxoro xattotlik maktabining o'zi alohida, to'laqonli tarzda o'rganilmagan. To'g'ri, 1971-yil Abdulqodir Murodov "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" asarida Hirot, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Toshkent xattotlik maktabi vakillari bo'lgan 300 dan ortiq xattotlar haqida ma'lumot bergan. Lekin qisqagina ma'lumotlar bilan cheklangan.

Mazkur ish muallifi O'rta Osiyoda o'tgan kotiblar hayoti va faoliyatini o'rganish, yetuk xattotlar asarlariga suyanib, XV–XIX asrlarda O'rta Osiyoda xattotlik san'atining taraqqiyoti va uni ijodiy maktablarga ajratish sohasida birinchi tajribalar o'tkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Shuningdek, turk olimi Habibning "Xat va xattoton" tazkirasida arab yozuvida shuhrat qozongan va turli xat uslublarini ijod etgan mingga yaqin

xattotning hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Habib tazkirasi yana shu jihatdan qimmatliki, undagi har bir xattot haqidagi ma'lumot birinchi manba – Sharq qo'lyozmalaridan olingan. Habib tazkirasidagi xattotlar tarixi VIII asrdan boshlanadi. Tazkira xattot Is'hoq bin Hammod (154 – 770/71-yilda vafot etgan) dan boshlanib, XIX asrning o'rtalarida o'tgan xattot Fig'oniddin Bulbul bilan tugaydi. Habib tazkirasida nomlari zikr etilgan xattotlar, asosan, arab, ajam va usmonli turklardandir. Mazkur tazkirada XIV va XV asrlarda o'tgan Xuroson xattotlarining mashhurlarigina zikr etilgan. Habib o'z asarida O'rta Osiyoda o'tgan xattotlar to'g'risida juda oz va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar beradi.

Xat san'ati ustodlari va O'rta Osiyoda o'tgan xattotlar to'g'risida ikkinchi muhim tazkira Buxoroda o'tgan olim Sharifjon Maxdumning "Tazkirai xushnavison" kitobidir. Sharifjon Maxdum o'z asarida qo'lyozma manbalariga suyangan holda qisman Hirot xattotlari va, asosan, Buxoro xattotlari faoliyati, san'ati va ko'chirgan kitoblari haqida ma'lumot beradi. Xiva, Farg'ona va Toshkent xattotlari haqida Sharifjon Maxdum tazkirasida ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay, mazkur asar O'rta Osiyodagi xat san'ati va xattotlar tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Tazkiralardan tashqari, ilmiy adabiyotda alohida xattotlar san'ati va badiiy qo'lyozmalar haqida ma'lum tadqiqotlar mavjud. Bulardan eng mashhuri Aleksandr Popning "Musulmon san'ati tarixi" kitobidir. Bu kitobda Pop Sharq san'atining turli sohalarini ko'rsatar ekan, uning muhim qismlaridan biri husnixat va kitobat san'ati ekanligini qayd qiladi. Ovropa va Eron qo'lyozma fondlaridagi bir necha badiiy qo'lyozmalarning husnixat va kitob naqshi namunasi sifatida rasmlarini beradi. Sharq badiiy qo'lyozma va kitoblaridagi miniatyura naqqoshligini o'rganuvchi olimlar ham o'z asarlarida xattotlik san'ati haqida bir qadar fikr yuritganlar.

Husnixat san'atiga oid sobiq Sovet Ittifoqi olimlari yaratgan ilmiy tadqiqotlardan 1947-yilda prof. B.N. Zaxoder tomonidan nashr etilgan Qozi

Ahmadning xattotlar va rassomlar haqidagi risolasini ko'rsatish mumkin. Prof. B.N. Zaxoder XVI asrning oxirlarida ko'chirilgan va Moskvadagi Sharq madaniyati muzeyida saqlanayotgan Qozi Ahmadning xattotlar va rassomlar haqidagi risolasini rus tiliga tarjima qilib, undan bir necha bet faksimil namunalar va miniatyuralarni nashr ettiradi. Mazkur ishda O'rta asr Safaviylar davrida Xuroson hamda Eronda o'tgan juda ko'p xattot va miniatyura ustalarining hayoti, ijodiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

1946-yilda prof. A.A. Semenovning "Navoiy davridagi Hirot badiiy qo'lyozmalari va ularning ijodchilari" nomli maqolasi bosilib chiqqan. Professor ko'plab qo'lyozma manbalarga asoslanib yozgan ushbu maqolasida xat san'atining kelib chiqish tarixi va XV asr xattotlari faoliyatiga oid muhim fikrlarni bayon qilgan. Ayniqsa, nasta'liq uslubining ijodchisi Mir Ali Tabriziy (781–807/1330–1404) va nasta'liq xatining buyuk san'atkori Sulton Ali Mashhadiy haqida alohida to'xtalib o'tgan.

Xat turlari va xattotlar tarixiga oid asarlardan bo'lmish Muhammad Tohir ibn Abdulqodir Kurdiyning "Tarix al xat al-arabiy va adabihi" ("Arab xati va adabiyotining tarixi") kitobi ham juda qimmatli manba hisoblanadi. Unda yozuv, xatlarning har biri haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, barcha arab xat turlari va eng mashhur xattotlar haqida ma'lumotlar ilovalari bilan keltirilgan.

Razzoqov Abdulg'afur Buxoriy bugungi kungacha silsila tarzida kelayotgan Buxoro xattotlik maktabi ananalarining davomchisi, bilimdoni hamda ustoz xattot bo'lganlari uchun ham an'anaviy Buxoro xattotlik maktabi tarixi, shakllanishi va asoschilari haqida bir necha risola, albomlar nashr ettirgan hamda o'zbek va xorij tillarida yigirmadan ortiq ilmiy maqolalar yozgan.

Professor Shodmon Vohidov va Zoir Chorievning asarlari bevosita Buxorodagi shaxsiy kutubxonalardan sanalmish Muhammad-Sharifjon Sadri Ziyo kutubxonasiga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotda Buxoro kitobat

san'ati va kutubxonachilik an'alariga doir muhim fikr va xulosalar ham mavjud.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti Qo'lyozmalar Fondi ilmiy xodimi Aminov Hamidulla Abdiraximovich "Xorazmda kitobat tarixi manbalari" (XVIII asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlari: O'z FA ShI Qo'lyozmalar Fondi asosida) mavzusidagi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi Xorazm kitobat san'ati haqida bo'lib, mavzu tarixiy faktlar asosida yoritilgan.

Yana O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti ilmiy xodimasi Latofat Xolnazarova o'zining "XIX–XX asrning boshlarida Buxoro amirligida kitobat va kutubxonachilik tarixidan" mavzusidagi dissertatsiyasida ham Buxoro xattotlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Yozuv va yozuv madaniyati - sivilizatsiya va madaniyatning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Tarix yozma tafakkur va yozma merosdan boshlanishini dunyo hamjamiyati juda yaxshi biladi.

Kitob va kitobat san'ati, uning an'anasi hamda yozuv bilan aloqador bo'lgan qadriyatlari o'zbek xalqining azaliy qadriyati va milliy boyligi, faxri va g'ururini tashkil etadi.

O'rta Osiyo xalqlarining turli davrlarda, jumladan, XX asrning boshlarida kitob va kutubxonachilik, kitobat va xattotlik san'ati va madaniyatiga bo'lgan munosabatlarini o'rganish turli fan sohalari uchun qiziqarli va muhim. Kitob va kutubxonalar xalqning tarixiy davrlarda turli sohalaridagi faoliyatlari, qoldirilgan bilim, malaka va mahoratlarini moddiylashgan shaklda o'zida mujassam etuvchi muhim bir vosita bo'lgan. Ajdodlarimizdan qolgan bu meros ma'naviy boylik sifatida tarixiy xotira hamdir. Ana shu katta va boy meros, xazina orqali o'tmishimizni kompleks ravishda o'rganish tarix fanining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Ilm-u ma'rifatning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat

qilgan kotib va xattotlarning hayoti va faoliyati, ularning o'ziga xos uslublarini o'rganishimiz lozim. Chunki bularni bilmay turib, ushbu asarlarni o'rganib bo'lmaydi. Ming afsuski, Sobiq Ittifoq davrida xalqimizning 14 asrdan beri foydalanib kelgan xat turining amaldan chiqarib tashlangani tufayli biz milliy merosimizdan foydalana olish imkoniyatidan mahrum qilindik. Odamlar arab xatini o'rganish u yoqda tursin, arabiy imloda bitilgan har qanday kitobni: u diniy bo'ladimi yoki adabiy yoxud tarixiymi, uyda saqlashdan qo'rqib, o'z qo'llari bilan ko'mib tashladilar. Biz ham ajdodlarimizning necha asrlik an'analarini qayta jonlantirish borasida o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "O'rta Osiyo xattotligi devoniy yozuvi tarixi va taraqqiyoti" kitobida devoniy (sultoniy) xati, uning ixtirochilari, shu xat turida ijod qilgan xattotlik maktabi vakillarining o'zlariga xos yo'nalishlari va uslublarini o'rganishni maqsad qildik. Chunki O'rta Osiyo xattotlari haqida ilmiy ishlar qilingan bo'lsa-da, lekin ularning har bir uslublari qiyosiy tahlil qilinmagan. Biz ana shu jihatga ko'proq e'tibor qaratdik.

Devoniy xati haqida o'zbek tilida birinchi bor qiyosiy tahqiq -tadqiq etilmoqda. Devoniy xati haqida o'zbek tilida vikipediya kabi ensiklopediya va qomuslarda umumiy ma'lumot berilgan bo'lsa-da, bu xat turlari haqida batafsil ma'lumot beruvchi yaxlit shakldagi risola yoki kitob hanuzgacha yaratilmagan edi. Darslikni yaratish mobaynida mavzuga aloqador o'ndan ortiq arab, fors, rus, turk tillariga mansub adabiyotlardan foydalandik.

Abdulqodir Murodovning 1971-yilda nashr etilgan "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" kitobida devoniy xati haqida juda qisqa ma'lumot va bu xatda yozilgan matnlardan namunalar berilgan. 1939-yilda nashrdan chiqqan Muhammad Tohir ibn Abdulqodir Kurdiyning "Tarix al xat al-arabiy va adabihi" ("Arab xati va adabiyotining tarixi") asari eng ko'p suyanilgan manba bo'ldi. 470 sahifadan iborat bu asar xattotlikka doir 120 dan ortiq katta va kichik mavzularni o'z ichiga olgan, juda qimmatli asar

hisoblanadi. Mazkur asarda xat turlari, xattotlik maktablari va ularning mahoratli ustoz va shogirdlari, mintaqalar bo'yicha xat turlari va ularning rivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Juda ko'p xattotlarning muborak nomlari, tarjimai hollari ham o'rin olgan. Bu manbani A.Murodovning "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" asari bilan o'xshash jihatlari ko'p. Ammo, Kurdiyning asari mukammalroq va ma'lumot jihatidan ancha boy hisoblanadi.

Komil Salmon al-Jaburiyning "Mavsu'atul xattil arabiy. Al-xattud devaniy" (Arab xattotligi qomusi. Devoniy xati) asarlaridan tadqiqot ob'ekti sifatida juda keng foydalandik. Bu kitobda, asosan, Devoniy xati ijodkorlari va xat rivojiga hissa qo'shgan san'atkor xattotlarning hayoti, ular qoldirgan asarlar haqida ma'lumot hamda mazkur xat turida yozilgan namunalar o'rin olgan. Bu manba devoniy xatining turlarini o'zaro qiyoslash uchun eng qulay manba hisoblanadi.

I BOB. XATTOTLIK SAN'ATI VA XAT TURLARI

Inson bolasi jismoniy sifatlari tomonidan qaralsa, hayvon bolasidan hech qanday farqi yo'qdir. Ammo, faqat bashariyatga berilgan alohida fazilat, buyuk ne'mat bu ilm olish va ilm berish sifatidir. Albatta, bu sifatlarni ta'minlab beruvchi asosiy omil aql-ongdir. Koinotda mavjud mavjudotlar ichida faqat insonlarga xos bo'lgan sifat - ilmdir. Ilm kishini bildiruvchi eng birlamchi belgidir. Zero, ilmli bilan ilmsiz hargiz barobar emas.

Ilm olish farzdir. Farzga eltuvchi vosita ham farzdir. Ilmning dastlabki bosqichi ham, uni mavqei qay darajaga yetganini bildiruvchi vosita ham yozuvdir. Asrlar osha ajdodlarning ilmiy merosini avlodlarga yetkazuvchi vosita bu yozuv, xatdir.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida ta'kidlanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining ko'ziga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun husnixat bilan yozilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e'zozlangan hamda tabarruk sanalgan.

Yozuv ya'ni kitobat qachon vujudga kelgani tarixi haqida jahon tarixchilarining xulosalari har xil ekanini ko'ramiz. Lekin samoviy kitoblarning nozil bo'lishining o'zi yozuv tarixi haqidagi ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Bu borada berilgan ayrim ma'lumotlarni keltiramiz:

Ahmad ibn Ali Qalqashandiy Misriy "Subhil a'sha fi sinoat al-insho" (Insho san'atida yo'riqnoma) kitobida Shunday deganlar: "Aytishlaricha, xat va kitobatni ilk bor qo'llagan Odam (a.s.) bo'lgan. U zot o'limlaridan uch yuz yil oldin loyga xat yozgan va uni olovda quritgan ekanlar" yana bir rivoyatda birinchi xat ixtirochisi Axnux ya'ni Idrisdir (a.s.). Boshqa rivoyatda esa Odamga (a.s.) Alloh tomonidan vahiy qilingan, ilohiy ko'rsatmalar bo'lgan 21 sahifa nozil qilingan deyiladi. Shu ikki ma'lumot

orqali ilk bor yozishni Odam (a.s.) va Idris (a.s.) boshlab bergan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Rasullulohdan (s.a.v.) rivoyat qilinadi: “Odamdan (a.s.) keyin qalam bilan yozgan birinchi shaxs Idrisdir (a.s.). U kitob o‘rgangani uchun ham Idris deb nomlangan. (*Hakim Termiziy rivoyat qilgan*).

Abu Zarrdan (r.a.) rivoyat qilinadi: “Birinchi payg‘ambar Odam (a.s.) va eng so‘nggisi Muhammaddir (s.a.v.), Bani Isroilning birinchi nabiysi Muso va oxirgisi Isodir (alayhimussalom). Ilk bor qalam bilan xat yozgan Idrisdir (alayhis salom)” (*Hakim Termiziy rivoyati*). So‘ngra Idris (a.s.) Nuhga (a.s.) yozishni o‘rgatgan va u kemasining tarxini chizgan”, deganlar.

1- Mavzu: Arab xatining vujudga kelishi va uning turlari

Reja:

- 1. Arabiy xatning kelib chiqishi haqida ma’lumot.**
- 2. Arab xatining turlari: ma’qaliy va kufiy xatlari.**
- 3. Arab yozuvining asosiy uslublari.**
- 4. IX-X asrlarda ixtiro etilgan xat turlari haqida ma’lumot.**

Arablar orasida xat va kitobatning rivojlanish bosqichlari haqida talaygina qarashlar mavjud bo‘lib, arab tarixchilari bu bosqichlarni bashariyatning yaratilish tarixi bilan bog‘lab ko‘rsatadilar. Jumladan, manbalarda shunday deyiladi:

Ibn Abbosdan (r.a.) hikoya qilinadi: “Arab lafzi va nutqida ilk bor yozgan zot Ismoil ibn Ibrohimdir (a.s.)”.

Birinchi xat yozgan Odamdir (a.s.) va u zotga yozuv ta’limini bergan Alloh Robbil izzadir. Chunonchi Qur’oni Karimda **“(Alloh) Odamga barcha (yaratilgan va yaratilajak narsalarga tegishli) nomlarni o‘rgatdi”**, -deb marhamat qilingan (*Baqara, 31- oyat*) .

Makhuldan rivoyat qilinishicha, Ismoilning (a.s.) farzandlaridan bo‘lgan Nafis, Nazr, Taymo va Davmalar arab yozuviga birinchi bo‘lib asos solgan bo‘lib, ular harflarni bir-biriga ulab yozishni joriy qilganlar, hatto *alif* bilan *ro* ni qo‘shib yozganlar. Bu (harf)larni alohida shaklda Hamis va Qaydorlar farqlab yozganlar. Bu ikkisi ham Ismoilning (a.s.) avlodlaridan bo‘lgan.

Ali ibn Burhoniddin Halabiy “Siyrat as-sahih” (Ishonchli tarix) asarida: “Arabiy xatda birinchi bo‘lib yozgan kishi Ismoilning (a.s.) o‘g‘li Nizor ibn Ma’d ibn Adnondir” degan.

Mas’udiy aytadi: “Arabiy xatning birinchi tuzuvchisi Mahsan ibn Jandal ibn Ya’sob ibn Madyanning avlodlari bo‘lib, ular Adnon ibn Add ibn Adadga tushgan edilar. Ularning ismlari Abjad, Havvaz, Hutti, Kalaman, Saufas va Qarashat bo‘lgan. Ular o‘zlarining ismida ishtirok etgan harflarni hisobladilar va yana ismlarida mavjud bo‘lmagan harflarni ham topdilar. Bular – sa (ث), xo (خ), zol (ذ), zod (ض), zo (ظ), g‘ayn (غ) harflari edi. Bu harflardan ham yana ikkita Saxxoz va Zazzog‘ so‘zlarini yasab o‘z ismlarining qatoriga qo‘shib qo‘ydilar. Shu bilan hijoiya (alfavit) harflari to‘liq bo‘ldi”. Ba’zi rivoyatlarda keltirilishicha, bular Madyanning podshohlari bo‘lib, ularning raisi Kalaman deb atalardi. Hammalari Shu’aybning (a.s.) qavmidan bo‘lib, barchalari “zulmat kunida” halok bo‘lganlar. “Zulmat kuni” ya’ni qattiq issiqdan keyin qop-qora bulut keldi, yomg‘ir o‘rniga olov yog‘di va barchalari kuyib ketdi. (Madyan qirilib ketgan arab qabilalaridan biri bo‘lib, ularning yerlari Aqaba qo‘ltig‘idan Turi Sinoga qadar cho‘zilgan). Kalamanning qizi otasiga atab marsiya yozgan va bu saqlanib qolgan. (Qanday qilib bu qiz qavmi bilan birga halok bo‘lmay, tirik qolganining sababini bilmayman”, -deb yozadi Mas’udiy).

Yana Mas’udiy Hishom ibn Kalbiydan rivoyat qilib aytadi: “Xat (yozuv)ning ilk ijodkorlari Anborda yashagan Bulon qabilasining Toy (urug‘i)dan uch kishi bo‘lib, ular Miror ibn Murra, Aslam ibn Sadra hamda

Omīr ibn Jadr alar edi. Ular suryoniy alifbosiga solishtirib (qiyoslab) arab alifbosini ishlab chiqdilar. Birinchi bosqichda harflarni ko‘rinishi (surati)ni yozdilar. Ikkinchi bosqichda harflarning alohida va ulangan holdagi shaklini ishlab chiqdilar. Uchinchi bosqichda nuqtalarini qo‘yib chiqdilar va ular bu xatni “xattul jazm” deb nomladilar. Bu – “kesik” deganidir. Chunki u “Himyariy xat”idan kesib olingan edi. Aytilishicha, Anbar ahli Hiyr ahlidan xat ta’limini olganlar. Boshqa rivoyatda buning aksi bo‘lganini aytadi. Aytiladiki, miloddan avvalgi 190-yillarda hukmronlik qilgan Munozaraning davrida Himyariy xati Hiyraga keltirilgan. Humyar Hud qavmi bo‘lgan ahli Yamanning xatidir. Hud – birinchi Od ya’ni Iramning Od qavmi edi. Ular ishlatadigan yozuv “musnad al-himyariy” (himyariycha xat) deb nomlanardi”.

Maqriziy: “Birinchi xattotlik qalami bu – Himyar va Od podshohlarining qalamlaridir”,-degan. Tarixi ibn Xaldun (807 vaf.) kitobning birinchi juzida qo‘shimcha ravishda buyuk amir hamda mohir xattot Shakib Arslon shunday yozadi: “Yevropalik olimlar, shu jumladan olmoniyalik Sharqshunos olim Martis Olmoniy ham quyidagi fikrni bildirdilar: iograf harflardan keyin harflar bilan yozish Yamanda vujudga kelgan. Yozishni finikiyaliklar ixtiro qilgan degan fikr mashhur bo‘lsa-da, lekin bu fikr to‘g‘ri emas. Balki birinchi bo‘lib yamanliklar kitobat (yozish)ni ixtiro qilganlar. Martisning aytishicha, finikiyaliklar o‘zlarining yozuvini yamaniy arab yozuvi asosida bino qilganlar. Yunonlar esa finikiyaliklardan olgan, o‘z o‘rnida rimliklar yunonlardan olgan. Dunyoda kitobatni ular qo‘lga kiritganlar va mana shu e’tibor bilan ular yozuv madaniyatiga asos solgan”.

Ibn Xaldun muqaddimasining “Xat va kitobat insoniyatning kashfiyotlaridandir” (“Fasl annal xatto val kitobota min addodis sino’il insoniya”) bobida shunday deydi: “Arab xati Tabobi’alar davlatida benuqson va afzallikda maromiga yetib bo‘lgan edi. Bu davlat

madaniylashib, dabdabali hayot kechira boshlagach, u “xat ul-humyariy” deb atala boshladi va Oli Munzir davlatidan bo‘lgan tabobi’aning aslzodalari Iroq yerlarini egallab, arab mulkini kengaytirgach bu xat Hiyraga ko‘chdi. Biroq ularning yozuvlari tabobi’alarnikichalik a’lo darajada emas edi.

Toif va Quraysh ahli yozuvni Hiyraliklardan o‘zlashtirganlar. Aytilishicha, Hiyraliklardan kitobatni o‘rgangan kishi Sufyon ibn Umayyadir. Yana bir rivoyatda bu kishi Harb ibn Umayya bo‘lgan va u kitobatni Aslam ibn Sadradan o‘rgangan, deyiladi. Mana shu haqiqatga yaqin gapdir. Hijoz ahli kitobatni Hiyradan, ahli Hiyra esa tabobi’alar va Humyardan o‘rganganlar, degan so‘z eng munosib so‘zdir. Humyarliklarning yozuvi musnad deb atalgan va harflari bir-biridan ajralib yozilardi. Ular yozuvlarini o‘zlaridan boshqa hech kimga o‘rgatmas edilar”.

Arab xatining turlari. 28 harfdan iborat bo‘lgan arab alifbosining dastlabki shakli *xatti ma’qaliy* deb atalgan.

Ma’qaliy xati kufiy xatigacha bo‘lgan qadimiy yozuvlardan bo‘lib, u harflari butunlay tekis – yoyiq, tik chiziqlar bilan ifodalangan bo‘lib, hech bir harfida dumaloq shakl bo‘lmagan va shu jihatlari bilan kufiy xatidan ajralib turadi.

Bu xatni “ma’qaliy” deyilishiga sabab shuki, 623 milodda shu nom bilan ataluvchi ikkita shaxs yashagan – biri Makkada Ma’qal ibn Sinon al-Asjiy, ikkinchisi Basrada Ma’qal ibn Yasor al-Muzaniylarning biriga nisbat berilganligini bildiradi. Ammo uzoq iste’molda bo‘lmagan, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o‘rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri hisoblangan *xatti kufiy* egallaydi.

Kufiy xati. Arablar fath qilingan yerlardagi devonlarni arablashtirish va tartibga solishdan avval barcha musulmonlar uchun o‘qishga oson bo‘lgan yozuvni tanlash ustida bosh qotiradilar. Natijada, kufa ahli o‘rgangan xat turining aniq va chiroyliroq bo‘lgani sabab ushbu xat turini tanlaydilar. Shunday qilib, kufiy xati davlatning barcha nohiyalarida

qo'llaniladigan yozuv turiga aylanib qoldi. Bu xat nuqtalardan xoli bo'lib, o'zining soddaligi va bezaklardan xoliligi bilan ajralib turadi.

Bu yozuv turi geometrik shakllarga asoslangan bo'lib, yozuvida faqat to'g'ri va doiraviy chiziqlar qo'llanadi. Bu xat turidan asrlar davomida boshqa turli xil arab xatlari vujudga kelgan. Har asrda kufiy xati turlicha o'zgarib, turli viloyatlarda uning turli xil shakli qo'llangan hamda u ishlatilgan asr va mintaqaga qarab, unga turli nomlar berilgan (masalan, V asr kufiysi, VII asr kufiysi, mamluklar kufiysi, andalus kufiysi). Shu zaylda undan yetmishdan ortiq shu turdagi xat tarqaladi.

Bu xatni **kufiy xati**, deb nomlanishi haqida bir necha fikrlar bor:

a) Kufa shahrida ijod etilgani uchun Kufaga nisbati berilib «kufiy» deyilgan;

b) Zamonamiz olimlaridan Buxorolik mashhur xattot Abdulg'ofir Razzoq Buxoriy esa bu haqda shunday deganlar: "Ikki dunyo saodati bo'lmish Qur'oni Karim ham mana shu xatda bitilgan. Hazrati Usmon (r.a.) boshchiligida Qur'on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko'chirtirildi. U zot Qur'onni mana shu asl nusxadan ko'chirishni buyurdilar. Shulardan bir nusxasi Kufa shahriga yuborilgan. Keyinchalik Iroq, Xuroson, O'rta Osiyo xalqlari mana shu Kufa shahriga yuborilgan Qur'ondan nusxa ko'chirganlari uchun u "Kufiy Qur'on" va "Kufiy xati" deb atala boshladi va shunday qilib, "kufiy" atamasi xat olamiga kirib qoldi. Shuningdek, ummaviylar zamonida VII asr oxirida tangalar kufiy xatida zarb qilina boshladi. Keyinchalik kufiy xatiga nuqtalar, e'roblar (zamma, fatha, kasra) qo'yildi. Tafsir, hadis, fiqh, aqoid, tarix ilmlarining shiddat bilan rivojlanishi xat yozishning ham tez, ravon va qulay bo'lishini taqozo qilar edi. Kufiy xati esa ancha murakkab bo'lgani uchun zamon talablariga to'la javob bera olmasdi. Ilohiy ilhom orqali kufiy xati asosida paydo bo'lgan arab xatining birinchi ixtirochisi bag'dodlik Abu Ali ibn Muqla (vaf.338/950 y.) hisoblanadi. Ibn Muqla ma'qaliy (kufiy) xati asosida arab yozuvining yetti


xil asosiy turini ixtiro etgan. Bu kishidan keyin Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277–397/891–1007 y.y.) (alayhi rahma val mag‘fira) Ibn Muqla ta’limoti asosida muhaqqaq va mashhur olti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Manbalarda qayd qilinishicha, Shayx Jamoliddin Yoqut Qur’oni Karimni *yoqut* xatida forsiy tarjimasi bilan birga ming adad ko‘chirgan. Keyinchalik Ibn Bavvob (vaf.mil.1022 y.) ham xat uslubining go‘zalligini mukammallashtiradi va 36 xat turidan 17 xilini ixtiro qiladi. Buyuk xattot Yoqut (XIII asr) va boshqa ulug‘ xattotlar arab yozuviga sayqal berib, ularning yana-da mukammal, jozibador bo‘lishiga o‘zlarining behisob hissalarini qo‘shganlar, xatdagi uslublarni oxiriga yetkazib, takomillashtirganlar”.

Xat va kitobat san’ati haqidagi barcha risolalarda xabar qilinishicha, *ma’qaliy* va *kufiy* xati asosida arab yozuvining san’atkorona yaratilgan olti xil asosiy uslublari maydonga kelgan. Ular quyidagilar:

1. **Suls xati** – to‘rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloqdir.
2. **Nasx xati** ixtirochisi mashhur san’atkor xattot Ibn Muqla’ hisoblanadi.
3. **Muhaqqaq** – bir bo‘lak qismi tekis bo‘lib, qolgan bo‘laklari yumaloq shakldadir.
4. **Rayhoniyy xati** – muhaqqaqdan kelib chiqqan. Muhaqqaq va rayhoniyy xatining ixtirochisi Ibn Bavvob bo‘lgan.
5. **Tavqe’ xati** – yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.
6. **Riqo’ xati** – ko‘pchilik harflari bir-biriga qurama qilib yoziladi. Tavqe’ va riqo’ ixtirochisi ma’lum emas.

Ayrim olimlar ta’liq xatini ham bu olti xat yoniga qo‘shib, asosiy xat uslublarini yetti tur qilib ko‘rsatadilar. Ta’liq xatining ixtirochisi Abul’ol

nomli shaxs deb ko'rsatganlar. Tekshirib ko'rilganda Abul'ol ixtiro etgan ta'liq xatining grafik asoslari kufiy xatidan kelib chiqib, bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Ko'pchilik olimlarning fikricha, *muhaqqaq* birinchi uslub, *rayhoni* xati undan kelib chiqqan. Suls uchinchisi uslub, *nasx* xati undan kelib chiqarilgan. Beshinchi uslub hisoblangan *tavqe'* xatidan so'nggi oltinchi xat *riqo'* kelib chiqqan. Bu xat uslublarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



Mazkur xatlarning har biri alohida o'rinlarda qo'llanilgan:

muhaqqaq — qasida va she'rlar yozishda;

suls — ilmiy asarlar va xat yo'l-yo'riqlarida;

rayhoni va nasx — qissa va xabarlarda;

tavqi' — buyruq va farmonlarda;

riqo' — maktublarda ishlatiladi.

Bu olti asosiy uslubning har biri ingichka va yo'g'on qalamlarda yozilishi natijasida yana o'n ikki xil xatni tashkil etgan.

1. Muhaqqaq. Bu xat turida harflarning ko‘proq qismi tekis, tikka chiziqli shaklda harflar uzun yoziladi. Barcha harflarning tugash qismi, uchi ingichka bo‘lib tugaydi, qolgan bo‘laklari dumaloq shakldadir. Shuning uchun bu xatning ma‘qaliy va kufiy xatlariga o‘xshashligi boshqa xatlarga nisbatan ko‘proqdir. Ibn Muqla boshqa turdagi xatlardan birinchi deb bilgani uchun bu xatga *muhaqqaq* deb nom bergan.

2. Rayhoniyy. Kufiydan kelib chiqqan bu xatning yozilishi shakl jihatidan rayhonga o‘xshash bo‘lib, aylanma shaklli harflar suls xatiga qaraganda yotiqroq va cho‘ziqroq yoziladi. Rayhoniyy xatning ixtirochisi Ibn Bavvob (vaf.mil.1022 y.) bo‘lgan.

3. Suls. Aholining ijtimoiy sharoiti va san‘atning gullab-yashnashi bilan kalligrafiya talablari yana oshdi. Endilikda bir-biriga, asosan, o‘xshash bo‘lgan xat turlaridan sezilarli farq qiluvchi yangi xat turiga ehtiyoj tug‘ildi. Shu yo‘sinda suls xati vujudga keldi. Xatning bu turi masjid va madrasalar peshtoqlarini bezay boshladi. Suls xati – harflarni bir-birining oralariga joylab, san‘atkorona kompozitsiyalar tuzish yo‘li bilan har xil chiroyli shakllar yasash imkoniyati bo‘lgani bilan ajralib turadi. Bu xatda bezak belgilar ham katta ahamiyat kasb etadi. Suls – bir narsaning uchdan bir hissasi yoki uchinchi hissasi, demakdir. Suls xati deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchi hissasi ishlatiladi yoki suls xati ta’limida qalamning uchdan bir hissasi ko‘proq ishga solinadi. Mazkur yozuv uslubida “alif”, “dol”, “lom” harflari gajakli bo‘ladi. Boshlanishda tikka chiziqlarning uch qismi changaksimon boshlanib, oxiri nafis burama bilan tugaydi. Ibn Bavvob birinchi bo‘lib suls xati harflari shaklining nuqtalariga asoslangan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan.

4. Nasx. “Nasx”ning lug‘aviy ma’nosi “o‘chirish, bekor qilish” demakdir. Bu xat turi ixtiro qilingandan to hozirgi kungacha xattotlar tomonidan keng qo‘llanilib kelinadi. (Ilovadagi 4-rasmga qarang)

Islom madaniyati taraqqiy topib boshlagach, kompozitsion san'at turlari bo'lmish naqsh va o'ymakorlik san'atlari keng tarqaldi. Musulmon san'ati ahli bu ruhni yozuvga ham olib kirishga harakat qilib, yangi xat turlarini kashf qila boshladilar va ularga ko'proq bezakli shakllar berishga urindilar. Oqibatda xattotlikda muayyan qoida va normalar ishlab chiqildi. Bu xat turlari oldingilaridan farqli o'laroq geometrik shakllarga emas, balki nafis og'ma shakllarga asoslangan.

Bu xayrli ishlar boshida Abbosiylar davlati vaziri Ibn Muqla (vaf. 328 h.) turadi. Shunday qilib, o'z tuzilishi va ko'rinishi bilan avvalgi kufiy xatidan ancha farq qiluvchi yozuv turlari kashf etildi. Ularning boshida nasx xati vujudga kelib, (bu xat turida) ilgari mus'haflar I asr kufiysida bitilgan bo'lsa, endilikda ular yangi kashf qilingan nasx xatida yozila boshladi. Bu xat turi yuzaga chiqib, shuhrat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi "mansux" qilingan, ya'ni ishlatishdan qoldirilgan. Nasx xati tez va ravon yozilgani, ko'zga go'zal va bejirim tashlangani uchun ham u matbaalarda chop etiladigan kitoblarda asosiy yozuv vazifasini o'tagan. Hozirgi davrda eng keng tarqalgan yozuv bo'lib, bu xatdan zamonaviy matbuot va adabiyotlar chop etishda foydalanilmoqda.

Ilmiy adabiyot va qo'lyozmalarda ko'p uchraydigan *g'ubor* xati nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Matnlar maxsus raqamda juda mayda qilib yozilgani uchun *g'ubor* deb aytilgan. *G'ubor* xatining ixtirochisi – mashhur xattot **Said Qosim** bo'lib, u bir dona guruchga mazkur xat bilan Ixlos surasini yozgan.

5. Tavqi'. Xatning yarmi tekis, yarmi yumaloqroq chiziqdan tashkil topgan bu yozuv turi ma'qaliy va kufiy xatlariga o'xshaydi. Tavqi' deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so'zlarni shu xat bilan yozganlar. Qozilar va hokimlar hujjatlarni tavqi' xati bilan imzolaganlar (Idora va mahkamalarda farmonlarga, maktublarga, qo'lyozmalarga tavqi' uslubida imzo qo'yilgan).

6. Riqo'. Riqo' - "ruq'a" so'zining ko'pligi bo'lib, qog'oz parcha, maktublar demakdir. Riqo' xatida harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Bu yozuv turi Usmoniylar hukmronligi davrida katta shuhrat qozongan va keng tarqalgan. Ko'pincha, maktublar, kishilarga yuboriladigan nomalar shu xat bilan yozilgan. Tavqi' va riqo' xatlarining ixtirochisi ma'lum emas.

7. Ta'liq. Ta'liq osilib turuvchi, ilingan yozuv ma'nolarini anglatadi. Bu xat aslida riqo' bo'lgan. Uni har kim turli shakllarga aylantirib, undan bir ravish ixtiyor qilgan. XV asrda paydo bo'lgan bu yozuv turidan, asosan, rasmiy va shaxsiy xatlar yozishda, hujjatlar bitishda foydalanganlar. Mazkur yozuv harflari yuqoridan chapga kengroq holda yoziladi. (ilovadagi 5-rasmga qarang) *Xoja Tojiddin Sulaymon* shu uslubni ixtiro qilgan kishilar jumlasidandir. Bu kishi ixtiro qilgan ta'liq xati riqo' xatining shoxchasidir. Bu xat insho va maktublarga tegishli bo'lib, munshiy (insho yozuvchi)lar uni cho'zib yozganlar. Ayrim olimlar ta'liq xatining ixtirochisi *Abul'ol* nomli shaxs deb ko'rsatganlar. Abul'ol ixtiro etgan ta'liq xatining grafik asoslari kufiy xatidan kelib chiqqan bo'lib, bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Yuqoridagi xat turlari xattotlar tilida "Al-Xutut as-sab'a" ("Yetti xat") deb yuritiladi. Xattotman, degan har bir inson shu xatlarni bilishi zarur bo'lgan.

Yuqorida zikr qilingan yetti xatdan tashqari mashhur bo'lgan xatlar ham talaygina. Devoniylar xati ham shular jumlasidandir.

Devoniylar xati. Usmoniylar davlati tugatilishi davrida sulton farmonlari va davlatning devonlaridagi hujjatlar va vasiqalar uchun ishlatiladigan maxsus xat turi yuzaga keladi va devoniylar xati deb nomlanadi.

Qalam yurgizishga, harflarining shakliga ko'ra ushbu xatdan ajralib chiqqan xat turi bo'lib, u jaliy devoniylar (yoki gulli devoniylar) deb ataladi. Agar devoniylar xatida harflar orasidagi cho'ziqlar bo'sh qolsa, jaliy devoniylar xatida ushbu bo'shliqlar bezak shakllar bilan to'ldiriladi.

Ijoza xati. Bu xat turi nisbatan kam ishlatilib, u rayhoniyl xatining rivojlantirilgan formasi sanaladi. Undagi harflar *xatti suls* va *xatti nasx* harflarining qorishmasidan yasalgan.

IX–X asrlarda ilk xattotlardan Ibrohim Sikiziy, Yusuf Sijistoniyl, Ibn Bavvob va boshqa ustodlar o‘ttiz olti tur xatni ixtiro etishgan. Quyida ixtiro etilgan 36 tur xat san’atlarining nomlarini keltiramiz:

1. **Tumor** – ingichka, mayda xat yoki qalam.
2. **Jalil** – katta, yo‘g‘on qalam.
3. **Majmu’** – qo‘shilma xat.
4. **Riyosiy** – 806 yilda zurrayosatang Fazl ibn Saxlga atalgan xat.
6. **Sulsayn** – qalamning uchdan ikki hissasi bilan yozilgan xat.
7. **Nisf** – mashq qalamining yarmi (qalam sifati).
8. **Javonihiyl** – paralel chiziqli xat.
9. **Musalasal** – domonalarini ichiga olib zanjir kabi bog‘lab yozilgan xat.
10. **G‘ubori xuliya** – xatning zeb-u ziynat va oroyishi.
11. **Mansur** – nasriyl so‘zlarda ishlatiladigan qalam.
12. **Muqtarin** – so‘zdagi harflarni bir-biriga ulab yozilgan xat.
13. **Havoshi** – hoshiya qalami.
14. **Ash‘or** – she‘rlar yozadigan qalam.
15. **Lu’-luiyl** – qalam sifati.
16. **Masohif** – mus‘hafning ko‘pligi.
17. **Fazzoh un-nasx** – ochiq va ravshan nasx xati.
18. **G‘ubor** – mayda qil qalam, mo‘yin qalam.
19. **Uhud** – shartnoma va ahdnomalarda ishlatiladigan.
20. **Muallaq** – ta‘liq qalamidan.
21. **Muomarot** – majlis va kengashlarda ishlatiladigan qalam.
22. **Muhdas** – yangidan ixtiro qilingan qalam.

23. Mudammaj – harflarni bir-biriga kiritib, bir o‘ringa joylashtirib yozilgan xat.

24. Muqovvar – atrofi kesilgan va o‘yilgan xat.

25. Mamzuj – aralash yozadigan qalam.

26. Mufattah – qalam sifati.

27. Muammayot – muammolar yozadigan.

28. Muxaffaf – qalam sifati

29. Mursal.

30. Mabsut – yoyiq, harakatlardan holi bo‘lgan xat.

31. Tov‘amon – egizak qilib yoziladigan soya berilgan xat.

32. Mu‘jiz – e‘joz chegarasiga yetkazilgan xat. Kotiblarni ojiz qoldiradigan xat.

33. Muxalla‘ – qalam sifati.

34. Devoni – devonxona, daftardor, kotiblarning shikasta xati.

35. Siyoqat – qalamni tez yurgizib yozilgan yassi xat.

36. Qurama – kesib yopishtirilgan xat.

36 tur xatdan boshqa shuhrat qozongan xat nomlari:

- shikasta;
- shikasta nasta‘liq;
- xatti sunbuli;
- xatti mehi;
- jali devoni, ijozat, riq‘a, shajari;
- zulf;
- uyg‘uri;
- xatti musalsal nasta‘liq bilan;
- xatti moriqa;
- rumuzod xatlari;
- san‘atli kufiy xati;
- xatti shohiy, xatti Boburiy;

- xatti tug‘ro, deboj, xatti noxun va boshqalar;
- tirnoq bilan bo‘rttirib yoziladigan xat.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma‘qaliy xati kufiy xatidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
2. Abdulg‘ofir Razzoq Buxoriy “kufiy” xati haqida qanday ma‘lumotlarni keltirgan?
3. Arabiy xat turlari haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganib, bir-biridan farqlashga harakat qiling.

Test.

1. 28 harfdan iborat bo‘lgan arab alifbosining dastlabki shakli qanday atalgan?

- A) Xat ul-humayriy
- B) Xatti ma‘qaliy
- D) Musnad al-himyariy
- E) Xattul jazm

2.Quyidagi 1-5 xatlarni qaysi o‘rinda qo‘llanilishi bo‘yicha a-f bilan moslashtiring:

- 1.Muhaqqaq a) maktublarda ishlatiladi
- 2.Suls b) qissa va xabarlarda ishlatiladi
- 3.Rayxoniy va nasx d) buyruq va farmonlarda ishlatiladi
- 4.Tavqi’ e) qasida va she‘rlar yozishda ishlatiladi
- 5.Riqo’ f) ilmiy asarlar va xat yo‘l-yo‘riqlarida ishlatiladi

3.Ilmiy adabiyot va qo‘lyozmalarda ko‘p uchraydigan xat qaysi?

- A) Ta’liq xati
- B) Devoniy xati
- D) G‘ubor xati
- E) Mu’jiz xati

2- Mavzu: Movarounnahrda mavjud arab yozuvidagi xat turlari

Reja:

1.Nasta'liq xati haqida ma'lumot.

2. “Nasxi Buxoriy”, “Mavlaviyi Soqiy” va “Noxun xati” haqida.

3. “Xatti Boburiy” haqida umumiy ma'lumot. “Imloi nav” .

Arab xati rivojlanishning katta yo'lini bosib o'tishi bilan birga Islomga kiritilgan davlatlar ham shunchalik katta maydonga ega bo'ldi. Bu yurtlarda avval ma'lum xat turlariga katta e'tibor qaratilgan shu bilan birga ma'lum bir yurt uchun qulay bo'lgan mahalliy xat turlari vujudga kela boshlaydi. Ular tezlik bilan o'zining mustaqil va o'ziga xos ko'rinishini topadi. Bunday xat turidan nasta'liq (yoki xatt-ut-ta'liq) bo'lib, u fors mamlakatlari va Afg'onistonda keng tarqaydi. Shu sababli uni forsiy xati deb ham ataydilar. Bu xat cho'ziqlarning ko'pligi va o'ziga xos og'ma shakli bilan ajralib turadi. Mazkur yozuv harflari yuqoridan chapga qiyaroq holda yoziladi.

I. Nasta'liq xati. Bu xat XIV asrda ijod etilgan. Bu yozuvdan rasmiy va shaxsiy yozishmalar, hujjatlarda foydalanilgan. Asoschisi **Xoja Mir Ali Tabriziy** (1330-1405) **“Qiblat ul-kuttob”** (“Kotiblarning peshvosi”) unvoni bilan sharaflangan xattot, nasta'liq (asli “nasxi ta'liq” bo'lib, yengillik uchun “nasta'liq” deb atalgan) xatining ixtirochisi hisoblanadi. U nasta'liq xatiga bir yo'l bilan olti turli xat asosida alohida xat ixtiro qilgan xattot. U Amir Temur davrida (1369–1405) yashagan. Ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Uning shogirdlaridan biri – Mavlono Ja'far, Shohruh Mirzo zamonida xushxatlikda nom chiqargan, ikkinchisi Mir Abdulhay esa Abu

Said zamonida yashab, kitobat san'atida, insho va tahrirda tenggi yo'q kotib bo'lgan.

Mir Ali Tabriziy nasta'liq xatining qonun-qoidolari bayon etilgan risola yaratgan. U ko'chirgan qo'lyozmalar, jumladan, Kirmoniyning "Xumoy va Humoyun", "Kamolnoma", "Ravzat al-anvar" dostonlari (1396-yilda ko'chirilgan, hozirda Britaniya muzeyida saqlanadi), Sa'diyning "Kulliyot"i, "Bo'ston" asari (1377), Nizomiy va Dehlaviyning "Xamsa" dostonlari (Eron milliy kutubxonasida) va qit'alari (1 donasi Sankt-Peterburgdagi Rossiya milliy kutubxonasida) bizgacha etib kelgan.

Bu xat turini "nasta'liq" deb nomlanishi haqida bir qancha qarashlar mavjud:

A) Sultonali Mashhadiyning ta'kidlashicha, Mir Ali Tabriziy bu xatni nasx va ta'liq yozuvlari asosida yaratgan.

B) Mir Ali Tabriziy zamonigacha va undan keyin ham kitoblarning asosiy matni sahifa o'rtasiga nasx xatida yozilar, matnga taalluqli izohlar yoki sharhlar ta'liq xatida matn yonlariga yozilar edi. Ya'ni nasx va ta'liq xatlari yonma-yon qo'yilar va ikkisini bir-biriga izofa qilib nasxta'liq deb ham atala boshladi. Bu xat ixtiro qilingach, "nasta'liq" deb ataldi. Go'yo bu xat ta'liq xatini nasx qildi (amaldan qoldirdi) degan ma'no kasb etdi.

V) Nasta'liq xati deb nomlanishi ham faqat Movarounnahr va Xuroson o'lkalariga xos. Chunki bu yozuv turi boshqa joylarda "forsiy xat" deb aytiladi.

Eronliklar bugungi kunda o'zlariga nasta'liq xatini milliy xat qilib olganlar. Buxoro xattotlari Domlo Bobobek yoki Ismatillobeklarning yozgan xatlari bugungi kunda eronliklarni ham hayratga soladi. Shunday chiroyli yozsa ham bo'ladimi, deb e'tirof etishadi. Chunki Buxoro xattotlari juda ham nozik yozishga katta e'tibor berishgan. Eronda bu an'ana Mir Imod zamonida katta mavqe'ga ega bo'lgan, u kishining shogirdlari ham bo'lgan. Lekin Buxoro xattotlari Mir Ali Hiraviyning tartiblarini o'zlariga standart

yoʻnalish qilib olganlar va shu asosda yozganlar va u kishini oʻzlarining pirlari deb hisoblashgan.

II. “Nasxi Buxoriy” xati. Asoschisi **Mir Ubayd Buxoriy** (vaf. 1601 y.) XVI–XVII asrlarda Buxoroda yashab ijod qilgan, nasx xati asosida yangi xat ravishi “Nasxi Buxoriy” (“Mir Ubayd”) xatining ixtirochisi. “Nasxi Mir Ubaydiy” yoxud “Nasxi Buxoriy” deb atala boshlanadi. Darhaqiqat, ushbu xat maftunkorligi va jozibadorligi bilan boshqa xat turlaridan ajralib turadi. Bu xat bilan Mir Ubayd Buxoriyning dovrugʻi va taʼrifi tez orada butun Oʻrta Osiyo boʻylab keng tarqalgan. Shu tariqa ushbu xatning ixlosmandlari va havaskorlari ham koʻpayib ketgan. Qurʼoni Karim nusxalari va salovotlar, asosan, shu xatda koʻchiriladigan boʻldi. Mana shu vaqtgacha hamma xattotlar Ibn Muqla va Yoqut Jazoiriyning raviyasini tutgan edi. Bu ikki shayxning raviyalari Buxoroda eng mukammal darajagacha yetkazilgan. Shuningdek, eng soʻnggisi bu xattot Muhammadamin Halvoiy boʻlib, yuqorida zikr qilganimizdek, bu xattot Mir Ubaydning ustozlaridir. Chunki Mir Ubayd “Nasxi Buxoriy”ni ixtiro qilgandan keyin barcha xattotlar uning ravishini jon-dillari bilan ixtiyor qildilar. Chunki bu ravishda yozish ham, uni oʻqish ham avvalgi nasx xatiga qaraganda oson, sodda, eng muhimi yozish va oʻqish juda qulay edi. Halvoiy raviyasi Buxoroda amaldan qoldi. Biroq bu usul Afgʻoniston va Hindistonda qoʻllanar edi. Movarounnahrda barcha xattotlar Mir Ubaydga taqlid qilar edilar. Islom dini zohir boʻlgandan to shu kungacha xat borasida uchta ixtirochi yashab oʻtgan.

Birinchisi: Ibn Muqla boʻlib, u Abbosiy xalifalardan Al-Qohiri billahning vaziri boʻlgan.

Ikkinchisi: Mir Ali Tabriziy.

Uchinchisi: Mir Ubayd hazratlaridir.

Sohibqiron Ubaydulloh Bahodirxon Said Subhonqulixon o'g'lining davrida uch nafar shaxs nomiga «mir» so'zi qo'shib aytilar edi. Uchovlari uchta hunar bo'yicha zamonasining bemisl va benazir, tenggi yo'q ustalari edilar. Uchala hunar alohida-alohida faoliyat bo'lsa-da, xattotlik bilan aloqador. Birlari Mir Ibrohim bo'lib, u ipak qog'oz yasashda mashhur edi. Ikkinchilari – xattotlik bobida Mir Ubayd bo'lib, qog'ozga yozgan xatining go'zalligiga so'z ojiz edi. Uchinchilari Mir Shafe' bo'lib, ziynatli lavhalar chekishda, naqsh chizishda va qog'ozga jadval tortishda unga teng keladiganning o'zi yo'q edi. Har birlari o'z hunarlarida yagona bo'lganlar. Lekin Mir Ubayd o'z qo'li bilan yozgan kitoblar juda kam.

Mir Ubayd Buxoriyning shogirdlari juda ko'p bo'lgan. Qori Mir Fayz Buxoriy, qori Abdulvohid Buxoriy, Qori Ahmad Buxoriy, Mirzo Hoshim Xo'jandiy, Muhammad Ersoriylar “Nasxi Buxoriy” xatida Qur'on, “Daloil ul-xayrot”, “Farzi ayn” singari kitoblarni, xutbalarni kitobat qilganlar. Keyinchalik ular chop qilinib (toshbosmada), xalq orasida keng ommalashgan hamda sevib o'qila boshlangan.

1965–66-yillari mana shu xat asosida O'zbekiston musulmonlari idorasi (u paytlar O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi deyilgan) boshchiligida Hoshim Xo'jandiy tomonidan “Nasxi Buxoriy” xatida ko'chirilgan Qur'oni Karim qaytadan chop qilingan.

Bugungi kunda Mir Ubayd tomonidan “Nasxi Buxoriy” xatida kitobat qilingan Muhammad ibn Said al-Busiriyning “Qasidai burda” asari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti Qo'lyozmalar Fondida saqlanadi.

Mir Ubayd Buxoriy jahon xattotlik san'atida bebaho meros qoldirgan. Mir Ubayd Buxoriyning qo'lyozma Qur'oni Buxoroda 40 000 (qirq ming) tangaga baholangan. Uning xati esa mo'jiza deb e'tirof etilgan.

Mir Ubayd ixtiro qilgan “Nasxi Buxoriy” xati boshqa nasx xatlaridan mukammalroq va jozibadorligi, o'qish osonligi bilan ajralib turadigan

xatdir. Yanada tushunarliroq aytganda bu xat nasxning qalin yozilishidir. Bu xat turini dunyoga olib chiqsa, faxrlansa arziydi. U o‘zidan avvalgi nasx xatlarini nasx qilgan xatdir.

III. “Mavlaviy Soqiy” uslubi. Asoschisi **Mavlaviy Soqiy** Muhammad Balxiy Sanchoiy Rikiy nasta’liq xatida atoqli xattotlardan bo‘lib, xati so‘ng darajada go‘zal bo‘lgani uchun “xattotlar otasi” deb atalgan. Buxoroda yashab ijod etgan buyuk xattot. Aslida, ushbu ixtiro qilingan xat uslubi Buxoro xattotlari o‘rtasida alohida o‘rin tutgani va bu xat turini o‘zlariga standart qilib olganlari uchun ham alohida xat turi sifatida tan olingan.

IV. “Noxun xati” asoschisi **Nizomiddin Buxoriy**. Bu xat tirnoq bilan qog‘ozni bo‘rttirib yoziladigan xat turi bo‘lib, uning ixtirochisi Nizomiddin Buxoriy bu yozuvning ustasi edi.

V. “Xatti Boburiy” asoschisi shoir sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur 1504-yil 20 yoshida Qobulda bu xatga asos solgan. Bu xatning boshqa bir nomi “Sig‘noqiy” bo‘lib, bu to‘g‘risida Bobur shunday degan:

***Turklar xati nasibing bo‘lmasa Bobur netong,
Boburiy xati emasdur xafti sig‘noqiydur.***

Bu xat arab alifbosi asosida tuzilgan bo‘lib 29 harfdan iboratdir. Ammo ba’zi jihatlari bilan arab alifbosidan ajralib turadi. Arab alifbosi hamda “Xatti Boburiy” o‘rtasidagi farqlar quyidagilardir:

1. Butunlay o‘zgargan harflar (“kof”, “nun”, “vov”, “fo”, “sin”, “shin”).
2. Jihati o‘zgargan harflar (bo”, “jim”, “xo”, “to”, “zo”..).
3. Juz’iy o‘zgargan harflar “mim”, “ha”, “dol”, “ayn”...).
4. O‘zgarmagan harflar (“alif”, “yo”, so‘z o‘rtasidagi “bo”...) va boshqalar (e’robiiy ya’niy harakatlar).

Bobur bu xatni tuzish orqali arab alifbosini soddalashtirish yoʻlidan boradi. Shu maqsadda uni turkiy tilning talaffuz meʼyorlariga moslashtirishga harakat qiladi.

Bobur Hindistondaligida bu xat bilan maktublar yozgan. “Xatti Boburiy” bilan Bobur mus’haf yozgan. Bu mus’haf **“Mus’hafi Boburiy”** deb ataladi. Uning qoʻlyozma asari hozirgi kunda Eronning Mashhad shahridagi Hazrati Imom Rizo ziyoratgohiga tegishli “Ostoni qudsi Rizoviy” kutubxonasida saqlanadi. Bu qoʻlyozma eronlik olim Goʻlchini Maʼoni tomonidan oʻrganilib, “Xatti Boburiy”da yozilganligi eʼlon qilingan.

2004-yili “Bobur xalqaro fondi” Eron davlatida boʻlib, “Mus’hafi Boburiy”ni foto nusxasini olib kelishdi. Hozirda bu fotonusxa Andijondagi “Bobur va Jahon madaniyati” muzeyida saqlanmoqda.

VI. “Imloi nav” – soʻnggi davrlarda paydo boʻlgan xat turi. XX asr boshlarida “Imloi nav” degan yangi imlo paydo boʻldi. Buni ayrimlar yangi xat desa-da, aslida xat turi emas, toʻgʻrirogʻi bosma xat turi boʻlib, oʻzbek tili harflariga moslashtirilgan. Bunda “zod” (ض), “izgʻi” (ظ), “zol” (ذ) harflari oʻrniga bitta “za” (ز) harfi qabul qilingan. Hozir bu xat turidan Qashqarda, Kurdistonda foydalaniladi.

Arab harflariga asoslangan yozuv kamida 15-16 asrlik tarixga va shuncha davrlik rivojlanish bosqichiga ega xat turidir. Shuningdek, arab alifbosi harflariga asoslangan arab xati turlarining koʻpligi, rang-barangligi, har birining oʻziga xos oʻlchov va uslublarga tayanganligi va oʻta nozik did hamda mohirona ijro tizimiga ega boʻlgan yozuv sifatida jahonda yagona ekanini ham taʼkidlab qoʻyish lozim.

Arab xati Kufiy xati asosida suls, nasx, muhaqqaq, rayhoniyy, tavqea va riqoʻ kabi 6 xat turini oʻz ichiga oladi. IX—X asrlarda ilk xattotlardan Ibrohim Sikiziy, Yusuf Sijistoniy, ustodi avval Ibn Bavvob va boshqa ustodlar tomonidan ixtiro etilgan 36 tur xat sanʼatlarining nomlarini hamda Ibn Bavvob uslubida yozilgan 16 ta qalam nomlari ham aslida xat turini

ifodalaydi. IX—X asrlarda ixtiro qilingan xat turlari 50 dan oshadi. Bunga 15 asrdan buyon Arab o'lkalaridan tashqari, arab alifbosidan foydalanib kelayotgan mintaqalar masalan, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Turkiya, Afrika kabi davlatlarda ixtiro qilingan xat turlarini ham qo'shib hisoblasak, 70 dan ortiq xat turi bo'lib ketadi. Shu nuqtai nazardan Arab alifbosiga asoslangan xatni tur va navi ko'pligi jihatidan eng boy xat turi deyishimiz mumkin.

Movarounnahr o'lkasida istiqomat qiluvchi xalqlarda qadimdan ixtirochilik qobiliyati bo'lganini tarixchilar bot-bot zikr etadilar. Jumladan, xattotlik sohasida ham eng ko'p ixtirolar aynan, mana shu hudud xalqlariga to'g'ri keladi. Bunga bir qancha misollarni keltirish mumkin. Afrikaning musulmon xalqlari orasida arab yozuvining turlaridan Mag'ribiy xatidan foydalanadilar. Qur'oni Karimdan boshlab, ilmiy, badiiy asarlarni ham ular Mag'ribiy xatida yozadilar. Ibtidoiy maktablarida shu xat turidan savodlarini chiqaradilar. Qizig'i shundaki, bu xat turini ijod qilinganiga 10 asr bo'lgan. Yana-da qiziqrog'i shu asrlar mobaynida bu xatga birorta o'zgarish kiritilmagan holda amalda qo'llanilib kelinmoqda. Eron hududida XIV asrda nasta'liq xati vujudga kelgan bo'lsa, eronliklar ham bu xat turini juda zo'r o'zlashtirishgan. Shu ikki xat turi bo'yicha Buxoro xattotlik maktabi vakillari tomonidan anchagina yangiliklar qilingan. Misol uchun, buxorolik xattotlar tomonidan nasx xati asosida yangi bir tur "Nasxi Buxoriy" xatining ixtiro qilinishidir. Nasx xatida bunga qadar Halvoiy raviyasi o'ziga xos uslub sifatida qabul qilingan edi. Nasta'liq xatiga ham Buxoro xattotlik maktabi vakillari tomonidan betakror raviya va uslublar joriy qilindiki, bugungi kunda fors (nasta'liq) xatida jahonning eng zo'r xattoti bo'lib turgan eronlik Rizo Safariy 2014-yil O'zbekistonga tashrifi chog'ida, Buxorolik mashhur xattot Abdulg'ofur Razzoqovning shaxsiy kolleksiyasida saqlanayotgan asarlarni ko'rib lol qolganini yashirmadi. Nasta'liq xatida yozilgan "Abdulg'ofur" so'zini qariyb bir soat tamosha qilib, yozilish

raviyasini naqadar puxta va aniqligini tan olib ketganligini, shu majlisda qatnashgan barcha ishtirokchilar e'tirof etdilar. Zar qadrini zargar biladi,- deganlaridek, xat zavqini xattotlar anglaydilar. Xulosa shuki, xattotlik bo'yicha yangi-yangi ixtirolarning kattagina qismi Movarounnahr diyorida chiqqan mohir, ustoz xattotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xatning "Nasta'liq" deb nomlanishi sabablarini ayting.
2. "Nasxi Buxoriy" xatining boshqa xatlardan farqi nimada?
3. Arab alifbosi bilan "Xatti Boburiy" orasidagi farqlarni sanang.

Test

1. Nasxi Buxoriy xatini kim ixtiro qilgan?

- A) Mir Ubayd
- B) Abdulvohid Buxoriy
- D) Mir Ali Tabriziy
- E) Mavlaviy Soqiy

2. Xattotlar otasi deb atalgan xattot kim?

- A) Nizomiddin Buxoriy
- B) Mir Ubayd
- D) Mavlaviy Soqiy
- E) Abdulvohid Buxoriy

3. Quyida berilgan ma'lumotlar 1-4, qaysi xat turi haqida ekanligini aniqlab, a-e xat nomlari bilan moslashtiring:

1. Tirnoq bilan qog'ozni bo'rttirib yoziladigan xat a) "Nasxi Buxoriy"
2. Bu xatning yana bir nomi- Sig'noqiydir b) "Mavlaviy Soqiy"
3. Boshqa nasx xatlaridan mukammalroq va jozibadorligi, o'qish osonligi bilan ajralib turadi d) "Noxun xati"

4. Bu xat turini Buxoro xattotlari o‘zlariga standart qilib olganlar e)
“Xatti Boburiy”

II BOB. BUXORO XATTOTLIK MAKTABIDA

DEVONIY YOZUVINING QO‘LLANILISHI

Reja:

- 1. Buxoroda xattotlik maktablarining vujudga kelishi.**
- 2. Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirilishi va saroy kutubxonalari.**

Buxoro xattotlik maktabi tarixini Islom dinining Buxoroga ilk kirib kelishi bilan bog‘lash mumkin. Islomning birinchi asridan boshlangan va IX, X, XI asrlarda, keyin Amir Temur zamonida, undan keyin Abdulloxon zamonida xat rivojlangan. Chunki islom dinining manbasi bo‘lmish Mus’hafi sharif arab tilida bo‘lib, uni boshqa millatning harflari bilan ifodalashning umuman iloji yo‘q. Ma’lumki, arab tilida to‘rtta “z” tovushlari bo‘lib talaffuzda ular bir-biridan farq qildirdi. Shuningdek, uchta “s”, ikkita “h”, ikkita “t” tovushlari ham farqli edi. Qur’oni Karimni faqat arab alifbosidagina o‘qish mumkin. Chunki ibodatlarda aytiladigan oyat, zikr va duolar arab tilida. Bu esa o‘z-o‘zidan shu til va yozuvni o‘rganish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Tez orada islom dinini chuqur o‘zlashtirish uchun buxorolik yosh yigitlar Makka, Madina, Kufa, Bog‘dod, Shom kabi arab diyorlariga ilm izlab safarlar qildilar va mujtahid darajasigi yetgan buyuk olimlar bo‘lib qaytib keldilar. Jumladan, Abul Hafs Kabir Buxoriy (rahmatullohi alayh), Imomi A’zam No‘mon ibn Sobitning (rahmatullohi alayh) shogirdi Imom Muhammad Ash-Shayboniydan dars olib mujtahid olim bo‘ldilar. Ya’ni Imomi A’zamga nabira shogird edilar. Shuningdek, muhaddislar sultoni Imom Buxoriyning butun hayoti, faoliyati ham, asosan, hadis yig‘ish uchun arab diyorlarida safar bilan o‘tdi. O’sha davrda Abul Hafs Kabir, Imom Buxoriy kabi olimlar juda ko‘p bo‘lib, ular arab tilida ijod qilganlar. Tarixni kuzatar ekanmiz, IX-XII asrlarda Movarounnahrda yashab ijod etgan barcha allomalar o‘z asarlarini arab tilida yozganlarining

guvohi bo‘lamiz. Asarlarni mualliflarning o‘zlari yozar edilar. O‘sha davrda kitoblardan nusxa olishning yagona yo‘li qo‘lda ko‘chirish edi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, shu ish bilan shug‘ullanadigan alohida xattotlar sinfi rivojlana boshladi. Chunki ilm-ma‘rifat yuksalib borgani sari ilmiy manbaalarga, kitoblarga ehtiyoj oshib bordi. Kitoblar eng qimmatli boylik hisoblanar, ayniqsa, hukmdorlarning katta-katta kutubxonalari barpo bo‘lgan edi. Bu asrlar “oltin asr” deb nomlandi. Chingizxon bosqinida bebahodurdonalar bo‘lmish yozma asarlar yo‘q qilindi, kutubxonalarga o‘t qo‘yildi, kitob saqlanadigan sandiqlar bosqinchilarning otlariga yem beriladigan oxur qilindi.

O‘rta Osiyoda xattotlik san’atining keng taraqqiyoti Temur va temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san’ati, dastlab, Xuroson poytaxti Hirotida rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topadi. Maktabning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu yerda, asosan, XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta’liq xat uslubi Sulton Ali tomonidan takomillashtiriladi. Bu uslub yirik va mayda nasta’liq kitobat ishlarida keng qo‘llanilib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta’liq xatida kitobat qilingan. Diniy va ba’zi ilmiy asarlar esa nasx xatida ko‘chirilgan. Kufiy, riqo’, suls va nasx xatlari esa ko‘proq me’morchilik, naqqoshlik san’atida va Sharq epigrafiyasida ishlatilgan. XVI asrda Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutib, siyosiy hukmronlik shayboniylar qo‘liga o‘tishi bilan Buxoroda madaniy hayot ma’lum darajada taraqqiy topadi. Hirot xattotlari, rassomlari va madaniyat arboblariidan bir qismi Buxoroga keladi. U yerda Buxoroning o‘ziga xos bo‘lgan yangicha kitobat va husnixat san’ati rivoj topadi. XVI va XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixat bobida o‘ziga xos uslub – Buxoro xattotlik maktabini yaratadilar.

Shayboniylar davlatlariga poytaxt etib Buxoro shahrini ixtiyor qildilar. Aytish mumkinki, Buxoro ikkinchi marta o‘z davrining tengsiz markaziga

aylandi. Chunki tarixdan bugungi kungacha ma'lumki qaysi shahar poytaxt bo'lsa, o'sha yerda ilmiy muhitning rivojlanishi yuqori bo'ladi. Amir Ubaydulloxonning tashabbusi bilan poytaxtga usta hunarmandlar, olimlar, Shuningdek, eng mohir xattotlar jalb qilindi. Bu esa o'zining amaliy natijasini berdi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, qo'lyozmalarni kitob holiga keltirish murakkab va mashaqqatli hamda o'ta mas'uliyatli jarayon bo'lib, unda bir necha mutaxassis ishtirok etgan. Ulardan birinchi darajadagilari – qog'ozrez (qog'oz tayyorlovchi), xattot (xat yozuvchi), zahhob (zarhal beruvchi), naqqosh (naqsh chizuvchi), lavvoh (sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi), posh (tilla suvini yulduz kabi sochuvchi), musavvir (qo'lyozmaga miniatyuralar chizuvchi rassom) va sahnhof (muqovasoz).

Tabiiyki, bir necha mohir ustalarning ishtirokida vujudga kelgan qo'lyozmalar bebaho san'at asari darajasiga ko'tarilgan va o'z zamonasidagi eng mo'tabar shaxslar – podshohlar, davlat va din arboblari, buyuk olimlar va shoirlarga, umuman, san'atsevarlarga tuhfa etilgan. Abdulqodir Murodov o'zining “O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan” nomli kitoblarida ta'kidlaganidek, XV–XIX asrlardagi Buxoro, Xiva va Farg'ona saroy kutubxonalari, ko'pincha eng qimmatbaho badiiy qo'lyozmalar hisobiga boyigan. Bir qator qo'lyozmalar davlat boshliqlari hamda san'at homiylarining tashabbuslari bilan dunyoga kelgan va yuqori baholangan. Amirlar saroy kutubxonasiga qabul qilingan har bir qo'lyozmaga oltin va javohir singari xazina sifatida qaraganlar.

Savollar:

1. O'rta Osiyoda xattotlik san'atining keng taraqqiyoti qachondan boshlangan?
2. “O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan” kitobi muallifi kim?

Testlar:

1. Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirish murakkab va mashaqqatli hamda o‘ta mas’uliyatli jarayon bo‘lib, unda bir necha mutaxassis ishtirok etgan. Ular qaysilar?

- a) qog‘ozrez, sahnhof
- b) xattot, lavvoh
- d) naqqosh, musavvir
- e) barcha javoblar to‘g‘ri

2. “Posh” qanday vazifa bajargan?

- a) naqsh chizuvchi
- b) sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi
- d) tilla suvini yulduz kabi sochuvchi
- e) qo‘lyozmaga miniatyuralar chizuvchi rassom

3- Mavzu: Devoni xatining yuzaga kelish tarixi

Reja:

- 1. Kitobat san'ati tarixi haqida ma'lumot.**
- 2. Arab xattotligining o'ziga xosliklari.**
- 3. Buxoroda Devoniy xatidan foydalanishning boshlanishi.**

Xat (خط) arabcha so'z bo'lib, chiziq chizmoq, (nimaningdir ustiga) chizmoq, degan ma'nolarini anglatadi.

Xat, kitobat, tahrir, raqam, satr, zubr - bu arab tilidagi so'zlarning barchasining mazmuni bitta, "yozish", "yozuv ilmi" kabi ma'nodadir. Raml ilmiga nisbatan ham xat deb qo'llash mumkin. Handasa ilmi ham xat deb ataladi. Ya'ni xat atamasining ishlatilish doirasi umumiyroq va ko'lam kengroqdir. Ammo "kitobat" atamasi adiblarga xos istilohda insho san'atiga nisbatan ishlatiladi. Faqihlar (islom huquqshunoslari) istilohida esa kitobat so'zi (quldorlik tuzimi davrida) qul o'zining xo'jayini bilan ozod bo'lishi uchun yetarli bo'lgan mablag'ni yillar davomida mustaqil ishlab topib berish va hurligini qo'lga kiritish uchun tuzgan ahdnomasiga nisbatan ishlatilgan.

Kitobat, kutub, kitob so'zlarining o'zagi arabcha "kataba" (yozdi) fe'lidan olingan bo'lib, qalam vositasida bir-biriga ulab biror narsani yozishga nisbatan ishlatiladi.

Kitobat atamasi qalam bilan qo'lda harflarni tasviri va naqsh shakli hamda yozilgan harflarning aynan o'ziga nisbatan ishlatilishi keng yoyilib ketdi.

Birinchi ta'rifimizga ko'ra **xat** umumiy bo'lib, ta'rif ostiga so'zni tasvirlash, hijoiy (alifbo) harflarini boshlang'ich va to'xtash o'rinlari aks etgan rasm kabilar kirib ketadi.

Ikkinchi, ya'ni **kitobat** ta'rif ostiga gapga dalolat qiluvchi maxsus yozuvlarga kiradi. Demak, xat umumiy, kitobat xosroq atama bo'lgan

taqdirda ham, biz bu ikki soʻzdan husni xat qoidalariga amal qilgan holda yozish sanʼati va zikr qilingan talablar asosida yozilgan matnni tushunamiz.

Demak, **kitobat sanʼati** (arabcha, kataba – yozish, yozmoq) — qoʻlyozma kitoblarni yaratish va ziynatlashdir. Markaziy Osiyoda qoʻlyozma kitoblarni bezash juda qadimdan mahalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bogʻliq holda shakllangan. Eng qadimiy kitoblardan «Avesto» qoʻlyozmalari; sugʻd tilida yaratilgan «Vessantaraka jataka» asari (uning varaqlari turli mamlakatlar — Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm oʻramlari, metall buyumlardagi yozuvlar; qogʻoz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bogʻlangan turi) va boshqalar. Oʻrta asrlarda umum musulmon yoki arab tilidagi qoʻlyozma anʼanalariga asoslangan Kitobat sanʼati toʻliq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Kitobat sanʼati hunarmandlar — qogʻozrez, xattot, lavvoh, moʻzahhib, musavvir, sahhof (muqovasoz) lardan iborat guruh (jamoʻa) tomonidan bajariladigan jarayon boʻlib, Oʻrta va Yaqin Sharq islom tasarrufidagi davlatlarda bir xil usulda amalga oshirilgan. Qoʻlyozma kitob uchun yaxshi, sifatli qogoz tanlangan, xattot matnni qogʻozga yozishda maxsus qogʻozkarton (mistar) ustiga ip tortib, uning izini matn yoziladigan qogʻozga tushirib olgandan soʻng xat yozilgan. Matnni joylashtirilishi xattotning mahoratiga bogʻliq boʻlgan. Bitilgan matnni lavvoh hoshiya qogʻozga yelimlagan. Ustidan jadvalkash ayni yopishtirilgan joydan turli ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. Soʻngra moʻzahhib suyultirilgan oltin va boshqa turli ranglar yordamida qoʻlyozmani ziynatlagan va «shams», «lavha», «sarlavha», «zarvaraq», «xotima» naqshlar bilan bezagan. Boʻsh qoldirilgan joylarga musavvir rasm (miniatyura) ishlagan. Musavvir, naqqosh nafis qamish qalam bilan rasmning asosiy tarhini, shakllar chizigʻini, detallarni chizib, soʻng turli rangda (oltin, kumush ishlatgan holda) boʻyagan. Muqovachi qoʻlyozmani karton yoki charmdan ishlangan (naqsh zarb qilingan,

bo‘yoqlar, oltin bilan bo‘yalgan) muqovaga biriktirgan, muqova qopqog‘i yog‘ochdan ba‘zan kumushdan quyib tayyorlangan hamda bosma, o‘yma va qadama naqshlar, yorqin rasmlar b-n bezatilgan. O‘rta asrlar (VIII-XII asrlar)da mutafakkirlar, olimlar asarlari, asosan, arab tilida (Xorazmiyning «Kitobi surat al-arz» — «Yer tasviri kitobi», 1036; Beruniyning «Osor ulboqiya» — «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», XIV asr va b.), keyinchalik (X-XIX asrlar) fors tilida bitilgan va rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar davri (1370 — 1506) dan boshlab turkiy — o‘zbek tilida kitoblar yaratilishiga alohida e’tibor berilgan. Saroy kutubxonalari va nufuzli shaxslar uchun tayyorlangan qo‘lyozmalar Kitobat san’atining yuksak namunasi darajasida yaratilgan. Mumtoz Sharq adabiyoti namoyandalari (Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Bedil, Alisher Navoiy va b.) asarlari, buyuk allomalar (Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va b.)ning ilmiy asarlari, qo‘lyozmalari shu usulda tayyorlangan Kitobat san’atining nodir durdonalaridir. Ularning aksariyati O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Jumladan, shoira Nodira buyurtmasiga binoan xattot Muhammad Yusuf Dabir tomonidan XIX asrda Qo‘qonda ko‘chirilgan Alisher Navoiyning she’rlar to‘plami — «Devoni Alisher Navoiy» qo‘lyozma kitobi ishlangan bezaklariga ko‘ra, dunyoda Kitobat san’atida yagona nusxadir. Unda musavvir va xattot Navoiy asarlari insoniyatga quyoshdek nur sohib turishini ramziy tasvirlagan naqshlar mavjud. Kitobat san’ati XX asrgacha davom etgan. XX asrning 70—80-yillarida bir guruh olimlar (jumladan, A. Madraimov, SH. Salimov, Muhammadjonov va b.) sa’y-harakatlari, ijodiy izlanishlari natijasida an’anaviy qo‘lyozma kitob yaratish san’ati — kitobat san’ati qayta tiklandi. Sh. Muhammadjonov Kitobat san’ati sohasida samarali ijod qilmoqda. U «Navoiy lirikasi», «Kalila va Dimna», «Devonu lug‘otit turk», «Ipak yo‘li hikoyalari» va boshqa kitoblarni Kitobat san’ati usulida nafis bezaklar, tasvirlar bilan bezatgan.

“Xat” soʻziga qadim olimlar turli taʼriflar berganlar. Jumladan, “Subhul aʼsha” asari muallifi Ahmad ibn Ali Qalqashandiy Misriy: “Xat - mufrad (yolgʻiz holdagi) harflarning surati, tarkibiy hayʼati va qoidalari u bilan taniladigan narsadir”, deganlar.

Ubaydulloh ibn Abbos: “Xat - bu qoʻlning tilidir”, degan .

Ibrohim bin Muhammad Shayboniy aytadi: “Xat bu qoʻlning tili, qalbning goʻzalligi, aqlning elchisidir. Fikrning vahiysi, maʼrifatning qurolidir. Yiroqdagi ikki doʻstning ulfatligi va uzoq masofadan turib soʻzlashuv vositasidir. Sirlarni omonat saqlovchisidir. Ishlarni yozib, bitib qoʻyuvchisidir”.

Xattot (خَطَّاط)- arabcha (فَعَّال) “faʼol” vaznidagi soʻz boʻlib, bu vazn “mubolagʻa siygʻasi”, deb nomlanadi. Yaʼni bir ishni mubolagʻa tarzida, juda koʻp takrorlagan kishiga sifat oʻlaroq ishlatiladi. Misol: doimo kechirimli boʻlgan, ayb va gunohlarni oʻtib yuboradigan zotga “gʻaffor”, deyiladi. Demak, xattot soʻzi xat va kitobat bilan muntazam shugʻullanadigan mutaxassislarga ishlatiladigan xos atama ekan. Shuningdek, kotib soʻzi ham arabcha “foʻil” vaznida yasaladi, biror ishni bajargan kishiga oʻsha ish turidan kelib chiqib sifat qilingan maʼnoni anglatadi. Arab tilida “kataba” yaʼni “yozdi” maʼnosidagi soʻz boʻlib, bundan “foʻil” vaznida “kotib” soʻzi yasaladi va maʼnosi “yozuvchi” boʻladi. Ammo, xat va kitobat soʻzlarining taʼrifidagi maʼnolar xattot va kotib atamalariga qiyoslanganda mazmunan aks holat yuzaga keladi. Chunki xat umumiy, kitobat undan koʻra xosroq maʼno kasb etgan boʻlsa, **xattot** soʻzi muntazam shugʻullanuvchi, kotib esa yozish feʼlini bir va undan ortiq marta bajargan kishiga nisbatan ishlatiladi. Lekin, bu qiyosimiz arab tilshunosligi nuqtai nazaridagi lugʻaviy tahlillar boʻlib, voqeʼlikda bu tahlillarga ahamiyat bermasdan, husnixat sohibiga nisbatan xattot ham, kotib ham deyilaveradi.

Arab xattotligi - arab harflaridan foydalanadigan turli xil tillarda yozuv san'ati va dizaynidir. Arab yozuvi bir-biriga bog'langanligi bilan ajralib turadi, bu esa uni kengayish, qayrilish, yumaloqlik, burchakka burish, o'zaro bog'lash, bir-birining ustiga chiqish va kompozitsiya orqali turli geometrik shakllarni olishga qodir bo'lgan yozuv turidir. Xattotlik bezak va ziynatlash bilan bog'liq kasbdir. Chunki masjid va saroylarni bezashda xattotlik san'atidan foydalaniladi. Shuningdek qo'lyozma va kitoblarni, ayniqsa, Qur'oni Karim nusxalarini go'zal tarzda kitobat qilish uchun ishlatiladi.

Har bir zamonda ham go'zal xat sirlarini o'zlashtirishga targ'ib qilingan. Jumladan, Kaykovus "Qobusnoma" kitobining o'ttiz to'qqizinchi bobini "Dabirlik va kotiblik zikrida" deb nomlagan va shu bobning ilk satrlarini shunday deb boshlagan: "Ey farzand, agar dabir va kotib bo'lsang, yozma nutqni yaxshi egallag'il, xatni yaxshi bilg'il va ko'p yozmoqni odat qilg'il, toki yaxshiroq mohir bo'lg'aysan".

XVI asrda Buxorolik xattotlar orasida devoniy xatini o'zlashtirgan kotiblar poydo bo'la boshladi. Bular orasida Movaraunnahrda yashab mazkur xatda ijod qilganlari ham, boshqa yurtlarga ko'chib ketib o'zlashtirganlari ham topilardi. Jumladan, Tojiddin Buxoriy 1567-yilda Turkiyada edi. U ibn Bavvob va Yoqut ravishicha, xatlar ko'chirish iste'dodiga ega bo'lgan xattot —shoirdir. Zero, Devoniy xati uning shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan. Tojiddin Buxoriy Sulton Salim davrida yashab ijod etgan, sayohatni yaxshi ko'radigan va hatto, sayohat qilib Ostona-gacha borgan xattot bo'lgan. Nasx va sulsda juda zo'r yozar, Devoniy xatida mashhur bo'lgan xattot edi.

XVIII asrda Buxoro xattotlari orasida devoniy xatida maktub va nomalar bitish holatlari kuzatila boshladi. Ammo, bu hududlarda devoniy xati ko'p ham iste'mol qilinmagan. Buning bir qancha sabablari bor. Jumladan, bu xat alifbosidan faqat devonxona xodimlari, xususan, maktub va risolalar bilan shug'ullanadigan xattotlarga xabardor bo'lgan.

Xattotlarning barcha ommasi bu xat turidan butkul bexabar bo'lganlar. XVIII asrda devoniy xatida Doniyolbek Atoliqqa yozilgan nomaning asl nusxasi zamondosh olim, buxorolik mashhur xattot Abdulg'afur Razzoq Buxoriyning shaxsiy kolleksiyasida bugungacha saqlanib kelmoqda. Mazkur nomani yozgan xattot o'rtacha bo'lgani xatidan ko'rinib turibdi. Qimmatli tarafi esa devoniy xat turidan Buxoro va shu kabi katta shaharlarda foydalanish yo'lga qo'yilganidir.

A.Murodovning "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" kitobining ilova qismida ikkita xattotning devoniy xatida yozgan ishlaridan namuna keltirilgan. Biri - xattot Imod bin Jaloliddin Muhammad Samarqandiy (980/1572 y.) tomonidan Devoniy xatida "Ruqaot" dan ko'chirilgan sahifaning foto nusxasi berilgan (ilova). Xattot Imod bin Jaloliddin tarafidan devoniy xatida yozilgan noma, xattotning mahoratligini, bu xat turini juda mukammal o'zlashtirganini ko'rsatadi. Lekin ming afsuski, bu xattotning shaxsi haqida A. Murodov kitobida bundan ortiq hech qanday ma'lumot bermagan. Ikki sahifada berilgan Devoniy xatidagi namuna bizga XVI asrda Samarqand xattotlarining mahoratini namoyon etadi.

Ikkinchisi - Badaviy al-Diraniyning donishmandlardan birining o'z o'g'liga qilgan nasihatini ham devoniy va riq'o xatida keltirgan.

Muhammad Badaviy al-Diraniy (1894-1967) Shomlik xattotlarning eng ulug' shayxlaridan. Harflarning yangilanishi va qoidalarining takomillashtirilishi va o'lchovlarini yuqori aniqlik va mutanosiblik bilan noyob uyg'unlikda namoyish etilishi bilan ajralib turadigan Ta'liq (forsiy) xati bo'yicha Shomiya (xattotlik) madrasasini asoschisidir.

Muhammad Badaviy Al-Dirani saxovatli oilada tug'ilgan, asli Damashqning Al-Midan mahallasida joylashgan Daraya qishlog'idandir. Maktabda Qur'oni Karim ilmlarini o'rgangan va yoshligidanoq xattotlik bilan shug'ullangan. U 1894-yilda katta yong'in sodir bo'lganidan keyin Umaviy (Jomiy) masjidini qayta tiklashni nazorat qilish uchun Damashqqa

kelgan taniqli turk xattoti Youssef Rasadan ta'lim olgan. Damashqlik xattot Mamduh al-Sharifning qaramog'ida u kufiy xattotligidan dars olgan va o'n yetti yil davomida uning nazorati ostida ishlagan. U Qohiraga sayohat qildi va qirol Farukning xattoti Najib Xavavini bilan do'stlashdi, so'ngra Iskandariyaga borib, uning masjidlarida belgilangan xattotlik bilan shug'ullandi va nihoyat taniqli xattot Xasham Muhammad al-Bag'dodiyning tajribasidan foydalanish uchun Iroqqa keladi.

Bu xattotga alohida urg'u berganimizning boisi shuki, Muhammad Diraniyning eng mashhur shogirdi bugungi kunda butun dunyo qorilari uchun asosiy namuna bo'lgan Madina Mus'hafini go'zal xatda yozib chiqqan Usmon Toho ekanidadir.

Xat (yozuv) insonlar o'rtasida eng muhim muloqot vositalaridan biridir. Yozuv va yozuv madaniyati sivilizatsiya va madaniyatning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Tarix yozma tafakkur va yozma merosdan boshlanishini dunyo hamjihatida juda yaxshi biladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Yer tasviri kitobi" asari muallifi kitobi kim?
2. Qachonga kelib O'rta Osiyoda kitobat san'ati to'liq shakllanib, yuksak taraqqiyot darajasiga yetdi?
3. Kitobat san'ati sohasida ijod qilayotgan olimlar haqida mustaqil izlanib, ma'lumotlarni o'rganib keeling.

Test

1. Ta'liq xati bo'yicha Shomiya xattotlik madrasasi asoschisi kim?

- A) Muhammad Badaviy
- B) Usmon Toho
- D) Youssef Rasa
- E) Najib Xavavi

2. Qaysi xattot bugungi kunda butun dunyo qorilari uchun asosiy namuna bo'lgan Madina mus'hafini yozib chiqqan?

- A) Muhammad Badaviy
- B) Usmon Toho
- D) Youssef Rasa
- E) Najib Xavavi

3. Quyida berilgan xat haqidagi ta'riflarni (1-4) mualliflari (a-e) bilan moslang:

1. "Xat - mufrad (yolg'iz holdagi) harflarning surati, tarkibiy hay'ati va qoidalari u bilan taniladigan narsadir" A) Kaykovus
2. "Xat bu qo'lning tili, qalbning go'zalligi, aqlning elchisidir. Fikrning vahiysi, ma'rifatning qurolidir. Yiroqdagi ikki do'stning ulfatligi va uzoq masofadan turib so'zlashuv vositasidir. Sirlarni omonat saqlovchisidir. Ishlarni yozib, bitib qo'yuvchisidir" B) Ubaydulloh ibn Abbos
3. "Xat - bu qo'lning tilidir" D) Ibrohim bin Muhammad Shayboniy
4. "Ey farzand, agar dabir va kotib bo'lsang, yozma nutqni yaxshi egallag'il, xatni yaxshi bilg'il va ko'p yozmoqni odat qilg'il, toki yaxshiroq mohir bo'lg'aysan" E) Ahmad ibn Ali Qalqashandiy Misriy

4- Mavzu: Devoni xati va uning rivojlanish omillari

Reja:

1. **Devoniy xatining ixtiro etilishi.**
2. **Ushbu xat turida ijod etgan xattotlar haqida ma'lumot.**
3. **Devoniy xatining rivojlanishi to'g'risida.**

Arab xatining ajoyib turlaridan biri devoniy xati bo'lib, u o'zining jozibasi, go'zalligi va yozish paytidagi qarama-qarshi shakllari bilan alohida e'tiborga molik bo'lgan xat turidir.

Devoniy – devonxona, daftardor, kotiblarning shikasta xatidir.

Devoniy xatining asosini, qoidalarini, mezon va o'lchamlarini ilk ixtirochisi xattot **Ibrohim Munifdir**. Ibrohim Munifning tavallud va vafoti sanasi haqida qat'iy ma'lumot bo'lmasa-da, u 1440-1500 yillar orasida yashab, ijod etganini taxmin qilish mumkin.

Bu xat turi IV asrda usmoniy sultonlarning yettinchisi bo'lgan Muhammad Fotih ibn Murod Soniy davrida ixtiro qilingan va rasmiy xat turi sifatida tanildi. Sultonning hukumat devonida mazkur xat rasmiy xat turi sifatida maktublar, farmonlar bitila boshlagani uchun “devoniy” yoki “sultoniy” xat deb nomlanib qoldi. Chunki turk sultonlar o'zaro yozishmalar va xatlarini aynan shu xat turida yozar edilar.

O'rganilgan manbalar, ilmiy adabiyot va tahlillar quyidagicha xulosa qilishga imkon beradi:

Tahqiq o'laroq aytish mumkin, **devoniy** xati usmoniylar asrida saroyning siri bo'lib, uning alifbosi, grafik o'lchamlari maxfiy tutilar edi. Shuning uchun ham boshqalar bu xatda bitilgan ma'lumotlarni o'qiy olmasdi. Bugungi kunda ham bu xat turidan xabarsiz xattotlar ham, shu xatda bitilgan ma'lumotlarni o'qiy olmaydilar.

Devoniy xatining siri uzoqqa bormadi. Bu xat turining obro'si oshib ketdi va sultonlik, xonlik saroylari devonxonalarida hukmdorlarning farmonlari, o'zaro yozishmalari devoniy xat turida yuritila boshladi. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Jumladan:

-Sultonlar sodda, bezaksiz, hamma o'qiy oladigan oddiy xalq foydalanadigan xat turidan foydalanishni istamaydi. Aksincha hukmdor toifa oddiy xalqning kiyinishidan tortib barcha iste'mol turida farqli bo'lishga uringanlar. Xat turi ham bundan mustasno emas. Shu bois ham shohona xat turini ixtiro qilinishi uchun iqtidorli xattotlarga buyruq berilgan bo'lishi mumkin. Bu turdagi xat ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi juda muhim hisoblangan. Devoniy xati ham qaysidir ma'noda mazkur maqsadni ado etishda muhim rol o'ynar edi. Muhtasham, bezaklarni xush ko'radigan toifa uchun devoniy xati ayni muddao bo'lgan yozuv turi edi. Mana shu kabi sabablarga ko'ra devoniy xati juda tez shuhrat qozondi. XX asrga kelib bu xat turi o'zining jozibasi, go'zalligi bilan barchani lol etdi. Shuning uchun ham bu xat turini o'zlashtirish ilinjida bo'lganlar soni ortib bormoqda.

Matnshunoslik nuqtai nazaridan devoniy xatida bitilgan farmonlar, yozishmalarning mazmunini bilish uchun bu xat turining alifbosidan, grafik o'lchovlaridan xabardor bo'lish dolzarb muammo hisoblanadi. Yechim sifatida devoniy xat turi tarixi, rivojlanish bosqichi va hozirgi kun bilan bog'liq taraqqiyotini o'rganishga bel bog'lash fursati yetib keldi.

Devoniy xat turida ijod qilgan, bu xat turining yangi navlariga asos solgan juda ko'p asrimizga yaqin yashab o'tgan ustoz xattotlar haqida ham ma'lumot berishni lozim ko'rdik. Chunki, devoniy xatining rivojlanishida asosiy omil san'atkor xattotlar ekani sir emas. Jumladan, marhum misrlik xattot Shayx Muhammad Abdulaziz ar-Rifoiy haratlari bo'lib, devoniy xati ta'limiga bag'ishlangan bir necha mashq daftarlarini tasnif etgan. Shuningdek, marhum Muhammad Sabriy al-Hiloliy Bag'dodiy. Qohirada ijod etgan marhum Mustafo G'azlonbek hazratlari bo'lib, uning o'ziga xos betakror yo'nalishi tufayli uning nomi bilan ataluvchi "Xatti G'azloniy" xat turi bor. Bularga qo'shimcha sifatida bir qancha asrdosh xattotlarni ham zikr qilish lozim. Zero, ular bu xat turidagi harflarga yangicha joziba, go'zal shakllar va qo'shimchalarni ijod qilganlar. Bulardan biri mashhur xattot

Mus'ad Huzayr Bursa'idiy, Muhammad Sa'id Haddad Misriy, Al-Hajj Zayid, Abdurrahmon Abush Misriy, Javvod Sabtiy, Jasim Najfiy va boshqalar. Bu ulug' xattotlarning hayoti va bu fan bilan bog'liq siyratlarini qisqa, muxtasar tarzda keltirib o'tamiz:

Shayx Muhammad Abdulaziz Rifoiy: O'z asrida xattotlar imomi bo'lgan, xat rayosati unga borib taqaladigan xattot bo'lib, 1871-yilda Tarobzunda tavallud topadi. Keyinchalik Istanbulga ko'chib keladi. Xattotlik sirlarini Hajj Orif Falbaviydan, Muhammad Shavqiy, Xulusiy, Hasan Qarinobodiy va Samiylardan o'rganadi. Rifoiy bezak, rasm va naqshda eng peshqadam sifatida e'tiborli bo'lgan. Bu fanda eng ahamiyatli ishlaridan biri Misr podshosi Ahmad Fuad uchun yozib bergan Mus'hafi hisoblanadi. Bu mus'hafni olti oyda yozadi va unga sakkiz oy bezak beradi. Bu voqea hijriy 1340-yilda bo'ladi. Rifoyni mazkur ishi tufayli Arab xattotlik san'ati madrasasi ochiladi va mazkur madrasada dars bergan ustozlarning eng boshi ham o'zlari bo'ladi. Rifoiy milodiy 1934-yilda vafot etadi.

Mustafo G'azlonbek: Bojur shahridan. Xat ilmini marhum Mustafo G'arradan olgan. So'ng Musaha devoniga undan so'ng podshoh imom Sulton Husayn qasriga keladi. Qasrda devoniy xati bo'yicha ustoz Muhammad Poshsho Shukriy qo'lida ta'lim oladi. Tavqe' qalami bilan tanilib mashhur bo'ldi va "Tahsinul xutut" (Xattotlik san'ati) madrasasida mudarris bo'lib ishladi. Ayniqsa, Devoniy xatida qilgan ijodi, o'ziga xos betakror raviyasi (uslubiga ega bo'ldi va bu uslubni mazkur xat turidagi yangi nav sifatida qabul qilinib, u "G'azloniy xati" nomi bilan atala boshlandi. Mustafo G'azlonbek 1938-yil vafot etgan. Bu xattotdan asar bo'lib Obidin va Ra'sut tiyn qasrlarining ikkita zalidagi taxt va ikkita ovqatlanadigan stol sirtiga naqsh qilingan xatlari qolgan.

Abdurrohman Sodiq Abus: Bu xattot Misrning Sa'idida 1921-yil tavallud topgan. Xatni sevib ulg'aydi va Qohiraga kelib "Tahsinul xutut al-

malikiya” (Xattotlik san’ati) madrasasiga o’qishga kirdi. U yerda Muhammad Hasaniy Dimashqiy, Najib Havaviniy, Muhammad Rizvon, Muhammad Ali Makaviy, Muhammad Abdurrohman, Muhammad Abdulqodir Abdulloh kabi ustozlardan xat ta’limini oldi va 1950-1952 yillarda “Xutut vat taxassus vat tahzib” (Xatlar va bezaklar mutaxassisi) mutaxassisligi bo’yicha diplomga ega bo’ldi. Bundan keyin bir necha rasmiy vazifalarga ko’tarildi va oxiri “Tahsinul xututil arabiya” (Xattotlik san’ati) madrasasasida mudarris bo’lib faoliyat olib bordi. Bu fan uchun qo’shgan eng katta xissasi bu “Namazij min a’malih va tarkibat min xattid Devaniy” (Devoniy xatining murakkabotlari va unda ishlashning namunalari) kitobini nashr qilgani bo’ldi.

Al-Hajj Zayid: ismi Sayyid Abdulqodir Abdulloh bo’lib, bu zot mashhur xattot Muhammad Abdulqodir Abdullohning tug’ishgan ukasidir. Xat ilmini Muhammad G’arib, shayx Ali Badaviy, Muhammad Ibrohim Afandi va Najib Huvaviniydan o’rgangan. So’ngra “Tahsinul xutut” madrasasiga o’qishga kiradi va barcha bosqichlarni tartibi bilan o’qib o’tadi. O’ziga Zayid ismini taxallus qilib oladi. Asosan, Devoniy va ta’liq xatlaridagi mahorati bilan mashhur bo’ladi. Keyin esa “Tahsinul xutut” xattotlik ta’lim muassasasida mudarris bo’lib ishlaydi.

Bu xattotdan meros bo’lib qolgan asarlar: Saksona lavhaga Rasm faniga asoslangan Mus’hafi sharifni yozgan va Bu Mus’hafni Misrdagi Shamarliy shirkati matbaasida nashr etilgan. Bundan tashqari ham ko’pgina asarlar qolgan.

Hoshim Muhammad Darbos Qaysiy Bag’dodiy: Yozuvchilar otasi, zamonasining tengsiz qobiliyat egasi Bag’dodning porloq quyoshi va faxr toji, arab xattotligi fanining yetuk namoyandasi Hoshim Muhammad Bag’dodning Xonlavond mahallasida 1917-yilda tavallud topgan. Qur’oni Karimni bolaligida yod olgan. Xat ilmini yoshligadan marhum Mulla Orif Shayxalidan olgan. Undan so’ng al-Hajj Ali Sobirdan, keyin Shayx Mulla

Ali Fazliydan olgan. Oxiri hijriy 1326, milodiy 1943-yil arab xatlaridan ijoza olishga muvaffaq bo'ldi.

1944-yilda Misrga safar qilib, Qohiradagi "Tahsinul xutut" madrasasiga keladi va u yerda uzoq qolmay o'zining xattotlik mashqlarini namoyish etadi. Madrasa ustozlari Hoshim Muhammadning mahoratini ko'rib unga madrasaning noziri Muhammad Ibrohim hamda Maorif vaziri Abdurrazzoq Sanhuriyning imtiyoz va imzosi bilan "Tahsinul xutut" muassasasining diplomi bilan taqdirlanadi. Shuningdek Misrning mashhur ustoz xattotlari Sayyid Ibrohim, Muhammad Hasaniy va Homid Omidiyning ham ijzasini olishga erishadi.

Hoshim Muhammad hijriy 1393-yil 27 Rai'ul avvalda, milodiy 1973-yil 30-aprelda vafot etadi.

Qoldirgan asarlari: "Qavoidul xattil arabiy" (Arab xati qoidalari) xattotlik mashq daftari, "Bag'dod masjid va muhafazotlaridagi bitiklar" nomli majmuasi hamda "Xat ta'limi va darsligi uchun dasturi" asarlari.

Muhammad Sabriy bin Mahdiy bin Ali Hiloliy: Abu G'olib hijriy 1318-yil /milodiy 1900-yilda tug'ilgan. Xat ilmini Mulla Orif Shayxali Bag'dodiyning amakisining o'g'li bo'lgan Mulla Muhammaddan, Shayx Ahmad Horiy al-Kazimiydan o'rganadi. Bulardan tashqari, Najib Huvavayni kabi bir necha xattotlar bilan, Shuningdek eronlik xattotlarga shogird sifatida bog'lanadi. Hijriy 1372-yil 27-Jumadul avvalda, milodiy 1953-yil 13-fevralda vafot etgan.

Qoldirgan asarlari: Bag'dodning jome' masjidlarida, Karbalodagi Imom Husayn va Abbos ziyoratgohidagi yozuvlar shu xattotga mansubdir. Shuningdek xat va kitobat yo'llarini ta'limi uchun ishlangan xattolik mashq daftarlari ilmiy meros bo'lib qolgan.

Muhammad Sa'id Haddod: Hozirgi vaqtda Misrning eng ko'zga ko'ringan xattotlaridan biri. "Tahsinul xutut" madrasasiga o'qishga kiradi va 1943-yil shahodat diplomiga ega bo'ladi.

Qoldirgan asarlari: Oltitta Mus'haf ko'chirgan. Shu sabab, 1984-yili Davlat mukofoti hamda "Ilm va fanlar" birinchi darajali ordeni bilan taqdirlangan. "Harflar ustidagi nuqtalar" (Nuqat favqal hurufi) va "Nuqtasiz harflar" (Huruf min g'oyri nuqotin) nomli ikki kitob tasnif etgan bo'lib, unda o'zining xat uslublarini ajoyibotlari va xatning bu turi (ya'ni devoniy xati)dagi yuksak imkoniyatlarni jamlab yozgan.

Mesad Huzayr Bursa'idiy: Bu zot 1942-yil Misrning Bur Sa'idida tavallud topdi. Xattotlik uning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, katta akasi Muhammad bilan shug'ullanardi. So'ng Tanto shahridagi "Tahsinul xutut" madrasasiga o'qishga kirdi. Keyin Bur Sa'idga qaytib keldi va bor kuchi, g'ayrati bilan shug'ullandi. Ustoz Favziy Salim Afifiy o'zining "Arab xattotligi va uning darg'alari" nomli qomus kitobida Mesad Huzayr Bursa'idiyning ajoyib natijalari haqida alohida zikr qilib, qomusning yettinchi juzini aynan mazkur xattotga bag'ishlagan.

Devoniy xati boshqa xat turlariga qaraganda nisbatan yoshroq xat turidir. XV asr oxiridan boshlab xattot va kotiblar ishlatishni boshlagan bo'lishiga qaramay, mazkur xat turining rivojlanish davri qisqa hamda barakali bo'lgan deyish mumkin. Sulton va shahzodalar orasidagi o'zaro yozuvlarni ta'minlab bergan bu shahona jozibador xat, juda ko'pchilik xattotlarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Haqiqatda go'zallik va latofatda alohida o'rin tutgan devoniy xati, insoniyat tarixida xattotlik eng rivojlangan asrda dunyoga kelib, rivojlandi. XV-XVI asrlar Movaraunnahrda ham mintaqalar bo'yicha xattotlik maktablariga asos solingan, go'zal xat sohiblari bo'lmish kotib va xattotlarning faoliyat gurkiragan davr desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Ayni mana shu asrlarda Alisher Navoiy homiy va rahnamoligida, Sulton Ali Mashhadiy ustozligida Hirot xattotlik maktabiga asos solindi. Bir oz muddat keyin Buxoroda shayboniyzoda amir Ubaydullaxon ehtimomi bilan Mir Ali Hiraviy, Mir Ubaydiy Buxoriy kabi yetuk javohirqalam mohir xattotlar va ularning shogirdlari asos solgan.

Buxoro xattotlik maktabi shakllangan davr edi. Mana shu davrda Samarqand, Farg‘ona, Toshkent va Xorazm xattotlari ham o‘z uslublari, xat va kitobat raviyalariga ega bo‘lgan edi. Mana shu dalillarga suyanib, islom olamida xattotlik yuqori cho‘qqiga chiqish nuqtasi bo‘lgan asr deya olamiz.

Savol va topshiriqlar:

1. Ibrohim Munif kim bo'lgan?
2. Devoniylarning rivojiga o'z hissasini qo'shgan xattotlar haqida ma'lumot bering.
3. "Namazi min a'malihi va tarkibat min xattid Devaniy" (Devoniy xatining murakkabotlari va unda ishlashning namunalari) kitobini nashr qilgan xattot haqida ma'lumot ayting.

Testlar:

1. Devoniy xati qachon ixtiro qilingan?

- A) IV asrda
- B) VI asrda
- D) Muhammad Fotih ibn Murod Soniy davrida
- E) A va D javoblar to'g'ri

2. O'z davrida xattotlar imomi bo'lgan xattot kim?

- A) Muhammad Sa'id Haddod
- B) Al-Hajj Zayid
- D) Shayx Muhammad Abdulaziz Rifoiiy
- E) Muhammad Sabriy bin Mahdiy bin Ali Hiloliy

III BOB. DEVONIY YOZUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Boshqa xat turlaridan farqli o'laroq, devoniy xatning har bir harfi aylana shaklda, alohida go'zallik kasb etgan edi. Avval oddiy rasmiy qamishda yozilib, keyin harakatlari va harflarning shakli nozik qalam bilan yozib chiqiladi. Harflar yangi chiqqan hilol kabi shakl namoyish etadi. Bu xat turidagi joziba boshqa xatlardagidan tubdan farq qiladi.


5- Mavzu: Devoniy xatining grafik muvozanati **(o'lchamlari)**

Reja:

1. Devoniy xati harflarining o'lchamlari.

2. Xattotlar o'rtasidagi ustoz-shogirdlik silsilasi.

Har bir xat turida harflarning aniq o'lchamlari bor. Xattot o'zi yozayotgan qalamning uchi bu o'lchamlarga asos qilib olinadi. Ma'lumki, qalam uchi o'ngdan chapga nishab qilib 40% qiyalikda kesiladi. Qalam yo'g'onligi esa, xattot yozishni istagan matnni katta o'lcham yoki kichik yoxud o'rtacha harflarni iroda qilishiga bog'liq. Nima bo'lganda ham, harf o'lchami xattotning qo'lidagi qalam uchida o'lchanadi. Devoniy xatida  alif (ʼ) harfining balandlik o'lchami, qalam uchi o'lchamida besh nuqta deb belgilangan. Eni esa uch nuqta etib belgilangan. Aslida boshqa xat turlarida alifning faqat bo'yining o'lchami beriladi. Ammo, devoniy xatidagi alif xuddi yangi chiqqan hilol kabi ko'rinishga ega bo'lgani tufayli xuddi lom harfi singari o'ngdan chapga qarab chiqqan yarim kosa shaklini aks ettiradi. Mana shu shakl 3 nuqtagacha bo'lgan o'lchamga egadir. (1-ilova) Boshqa harflar ham, asosan, 5 nuqta o'lcham bilan hisoblanib yozilaveradi.

Devoniy xatida "ba" (ta, sa) harfining ikki xil  shakli qabul qilingan. Biri 5 nuqtali, ikkinchi shakli uzun bo'lib 12 nuqtagacha cho'ziladi va har ikki shakl ham satr chizig'idan yuqorida bo'ladi.

"Jim" (ha, xo)  harfini uch bo'lib yozish osonroq kechadi. Birinchi jimning bosh qismi 2 nuqta uzunligida yoziladi. Ikkinchi bel qismining yarmi ya'ni 4 nuqta uzunlikda satr chizig'idan yuqorida, qolgan 3 nuqtalik dum qismi esa satr chizig'i ostiga tushadi.

“Dol”  harfining bosh qismi 2 nuqta bo‘lib, past qismigacha egilgan va dum qismi ham 2,5 nuqta uzunlikda bo‘ladi.

“Ro”  harfining bosh qismi o‘ngga ilgak kabi burilgan, umumiy uzunligi 5 nuqtani tashkil etadi.

“Sin” harfining ham ikki xil shakli bor. Birinchi shaklda sinning  tishlari 2 nuqta bo‘lib, kosa qismi satr ostida bo‘lib, 2,5 nuqta o‘lchamga ega. Sinning ikkinchi shakli satr ustida yoy-kamonning yarim shakli,  uzunligi 10 nuqta va kosa qismi satr ostida 2,5 nuqtani tashkil etadi. Faqat boshqa xat turlaridan farqli o‘laroq, devoniy xatida nun, sin, sod harflarida uchraydigan barcha kosasimon shakllarning dum qismi boshlang‘ich qismidan balandroq bo‘lib, satr chizig‘idan o‘tib to‘xtaydi. Ammo nasx, nasta‘liq, suls xatlarida barcha kosasimon shakllarning dum qismi boshlang‘ich shakldan yuqoriga o‘tib ketmaydi. Balki bir nuqta quyiyoqda tugaydi.

“Sod”  harfi 5 nuqta o‘lchamda uzunligi va shuningdek bo‘yi ham 5 nuqta o‘lchamida bo‘ladi.

“To”  harfining balandligi 5 nuqta, asosiy qismi sod bilan bir xil bo‘ladi. Bel qismidan chiqqan alif shaklida 2 nuqtaga teng ilgak ko‘rinishidagi shakl mavjud.

“Ayn”  harfining bosh qismi 3 nuqtadan iborat. Bo‘yi 5 nuqtadan iborat.

“Fa”  harfining bosh qismi 4 nuqta, uzunligi 5 nuqtani tashkil etadi. Nuqtasini alohida yozish yoki dum qismi bilan qo‘shib yozish ham mumkin.

“Qof”  harfining bo‘yi 5 nuqta, uzunligi 5 nuqta bo‘lib, nuqtalari har doim dum qismiga qo‘shilib yoziladi.

“Kof”  harfi bilan “lom”  harfi uchun asos sifatida bir shakl tanlangan. Bunda alifning boshlang‘ich shakli yoziladi va dum qismi o‘ngga

qayrilib belidan o‘tib ketadi. Faqat kof harfini yozishda mazkur shakl ustiga xuddi nasta’liq xatidagi singari yotiq alif qo‘yiladi.

“Mim”  harfining boshlang‘ich shakli xuddi nasta’liq xatidagi singari  chiqariladi. Dum qismi esa dastlab 3 nuqta chapga keyin yana 3 nuqta o‘ngga qarab yoziladi.

“Nun” harfining  3 ta shakli bor. Birinchisi yumaloq bo‘lib, ochiq joy qoldirilmaydi. Nuqtasi yumaloq o‘rtasiga qo‘yiladi. Ikkinchi shakli ham yumaloq. Faqat yuqori qismida ozgina ochiq joy qoldiriladi. Uchinchi shaklida yumaloq bo‘lib, nuqtasi yumaloq tashqarisiga, dum qismi bilan qo‘shilib yuziladi.

“Vov”  harfini ikki xil shakli bor. Birinchisi barcha xat turlari kabi vovning bosh qismidan keyin ro yoziladi. Ikkinchisi dumi va nuqtasi yo‘q qofning o‘zidir.

“Hoyi havas”  harfining ham ikkita shakli bor. Birinchi shakl bo‘yi va eni 5 nuqtani tashkil etadi va yozilishi ochiq nun va o‘rtasiga fo harfining bosh qismi yoziladi. Ikkinchi shakli yumaloq yopiq tarzda yoziladi. Buning o‘lchamlari bo‘yiga 2 nuqta, eniga 1 nuqtani tashkil etadi.

“Lom-alif”  harfi alohida jozibaga ega bo‘lib, ikkita alifni bir-biriga kiritib yoziladi. Bo‘yi 5 nuqta va eni ham 5 nuqtani tashkil etadi.

Eng so‘nggi harf bo‘lmish  “yo” harfining balandligi 5 nuqta, eni 4 nuqta o‘lchamiga teng. Dum qismini yuqoriga yo‘naltirib yozish ham aylana shaklida yozish ham mumkin.

Xattotlar o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik silsilasi. Bu o‘rinda xattotlarning o‘z ustozlari va ular bilan bog‘langan silsila zanjiri haqida to‘xtalishni lozim ko‘rdik. Ma’lumki, islom olamidagi deyarli barcha fan turlarida silsila zanjiri mavjud bo‘lib, bu zanjir shogirdni ustozlari bilan bog‘lab turadi. Masalan, Qur‘on qiroatlari bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan

shaxs, o‘zining ustozidan to Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) gacha bo‘lgan silsila zanjiriga ulanadi va bu hamisha juda e‘tibor bilan yondashilib kelayotgan vajhlardandir. Hadis, fiqh kabi ilmlar ham huddi shu tartibda o‘zlashtiriladi. Natijada, mutaxassisni qaysi ilmiy maktab vakili ekani, ustozlari kim ekani darrov aniq bo‘ladi. Shu jumladan, xattotlar o‘rtasida ham silsila zanjiri bor. Bunga misol tariqasida, “Tarixul-xattul-arabiy va adabihi” asari muallifi mashhur xattot Muhammad Tohir ibn Abdulqodir Kurdiyning silsilasi haqida o‘z asaridan iqtibos keltirgan holda taqdim etamiz.

“Bu o‘rinda xattotlarning turkiy sanad va misriy sanad jihatidan, o‘zim har ikki sanadga bog‘langanim uchun zikr qilmoqchiman. Birinchi turkiy sanadni zikr qilaman.

Men Muhammad Tohir Kurdiy Molikiy arab xat turlarini o‘z zamonasini yagonasi bo‘lgan mashhur xattot marhum shayx Muhammad Abdulaziz ar-Rifo‘iy Turkiydan olganman. U zot esa:

- Al-Hojj Ahmad al-Arif al-G‘albaviydan
- Al-Hojj Muhammd Shavqiy Afandidan”
- Xolusiy Afandi
- Mahsud Rojiiy Afandi
- Arif Mustafo al-Kutahiy
- Sulaymon Musta’badzoda
- Umar Vasfiy Turabazuniy
- Yamoq Solih
- Husayn al-Xulliy
- Darvish Ali
- Xolid Dadh
- Hasan Al-Askadaiy
- Bir Muhammad Dadh
- Muhammad Dadh

- Shayx Mustafo Dadh. Bu zot xattotlikni oldi:
- Shayx Xayriddin
- Abdulloh As-Siyrofiy
- Vafo Afandi
- Ahmad Afandi
- Yahyo Afandi
- Yoqut al-Musta'samiy
- Qiblatul kuttob
- Jamoliddin
- Shahobiddin
- Abu Zar
- Zaynul Obiddin
- Ali ibn Zayd
- Solha
- Uvays
- Ali Bag'dodiy
- Ishoq
- Ali ibn Bavvob
- Vazir Ibn Muqla
- SHhayx Qosim
- Hasan Basriy
- Aliy Ibn Abu Tolib roziyallohu anhu. Bu zot xatni Yashrab bin Abdulmalik va Harb ibn Umayyalardan olgan. Bu ikkisi Makkaga ilk bor xat va kitobatni olib kirgan shaxslardir.

Misr diyori xattotlarining silsila zanjiri bilan kelgan sanadini keltiramiz.

Men Muhammad Tohir Kurdiy Molikiy arab xat turlarini va mukammal qoidalarini Misrning Qohirasidan bo'lgan qadri ulug'

mashhur xattot shayx Muhammad Ibrohim Misriy, laqabi Afandiydan olganman. U zot esa:

- Muhammadbek Ja'fardan. U zotning ustozlari
- Muhammad Afandi Mu'nis
- Otasi Ibrohim Afandi Mu'nis
- Usmon Afandi al-Baqlajiy
- Ismoil Vahbiy Afandi
- Sayyid Muhammad Afandi an-Nuriy, bu zot olganlari
- Husayn Afandi al-Jazairiy
- Darvish Ali
- Xolid Afandi
- Hasan Afandi Al-Askadariy
- Bir Muhammad
- Otasi Mustafo Dadah Shibliy
- Otasi Hamidulloh al-Amasiy
- Xayriddin al-Mar'ishiy
- Abdurrohman bin as-So'ig'
- Shamsiddin Muhammad al-Vasamiy
- Shihabuddin Muhammad G'oziy
- SHamsiddin Muhammad bin Abiy Ruqayba
- Imoduddin al-Halabiy
- Otasi Afifuddin Muhammad al-Halabiy
- Valiyuddin Ali bin Zankiy (Alvaliy al-Ajamiy)
- Aminiddin Yaqut Makkiy, u olgan ustozlari
- Shahida binti Ahmad al-Iyriy
- Muhammad Abdulmalik
- Ali bin Hilol (Ibnul Bavvob)
- Muhammad bin Asad bin Ali al-Qoriy
- Vazir Abu Aliy Muhammad bin Muqla

- Al-Ahval al-Muharrir
- Ibrohiy ash-Shajariy
- Ishoq bin Hammod
- Hasan Al-Basriy
- Aliy Ibn Abu Tolib roziyallohu anhu. Bu zot xatni Yashrab bin Abdulmalik va Harb ibn Umayyalardan olgan. Bu ikkisi Makkaga ilk bor xat va kitobatni olib kirgan shaxslardir.

Xattotlarning ustoz-shogird silsilasini aks ettirgan bu ro'yxat, aslida bittagina xattotga tegishli bo'lib, tarixda o'tgan har bir xattotning xuddi shu singari ustozlari bilan bog'lab turgan silsila zanjiri bo'lgan. Namuna sifatida bu silsilani keltirishimizdan maqsad, xattotlik an'analari naqadar e'tibor va diqqat bilan, hurmat bilan munosabat bildirish lozimligini anglatadi. Shuningdek, kitobat va xattotlik barcha asrlarda ham eng muhim fan sifatida g'oyat qunt, puxtalik bilan o'zlashtirilganini bildiradi.

Tasvirga oladigan foto uskunalar har qancha rivojlanmasin, mo'yqalam sohiblari bo'lmish rassom va naqqoshlarga e'tibor kamaymagani singari xattotlik qalami o'rnini elektron klaviyaturalar, qog'oz o'rnini kompyuterlardagi vord kabi dasturlar egallagan bo'lsa ham, bu fan turini jiddiy o'rganish dolzarbligicha qolaveradi,

Savol va topshiriqlar:

1. Har bir xat turida harflarning aniq o'lchamlari bor. Xattot nimani bu o'lchamlarga asos qilib olinadi?
2. Devoniy xati harflarining o'lchamlarini o'rgangan holda matn yozishga harakat qiling.
3. Xattotlikda ustoz- shogirdlik silsilasi haqida nimalarni o'rgandingiz?

6- Mavzu: Devoniy xatining raviya va turlari.

Reja:

- 1. Devoniy xatining navlari haqida ma'lumot.**
- 2. Buxoro xattotlarining kitobat qilishda kerak bo'ladigan anjomlari borasida.**

Hamisha yangilik, taraqqiyot va rivojlanish sari intiluvchi xattotlar qalam yurgizish, harflarining shakliga ko'ra ushbu xat turini o'zida ham bir necha navlarini ixtiro qilganlar. Quyida devoniy xatining navlari bilan tanishamiz.

1. **G'azloniy xati.** Bir-biriga bog'lab yoziladigan devoniy xati: bu xat turida harf va kalimalar bir-biriga chigal holda yoziladi. Bu xat turida Misrlik mashhur xattot Mustafo G'azlonbek ijod qilib, ajoyib lavhalarni yozgan va bu go'zal xat turiga nisbatan "G'azloniy xat", deb ataganlar. (2-*ilova*)

2. **Jaliy devoniy xati.** Bu xat turida ilk bor usmoniylar yozganlar. Bu xat turi ijodkoridan xattot Shahlon Poshsho bo'lib, harflari katta-katta, ochiq va ravshan bo'lgan uchun uni shunday nomlagan. Bu xat turida, asosan, podshoh farmonlari va ajnabiy davlatlarga yuboriladigan xat va risolalar yozilgan. Mazkur xat turi "jali devoniy" yoki "xafiy devoniy", deb atala boshlangan (3-*ilova*). Oddiy devoniy xatida harflar orasidagi cho'ziqlar bo'sh qolsa, jaliy devoniyda ushbu bo'shliqlar bezak shakllar, harflar orasida qolgan ochiq joy nuqtalar bilan to'ldiriladi. Natijada harflari misli yaproqdek va bir-birining orasidan o'tgan shohchalar ko'rinishini eslatuvchi shakl kasb etgan juda go'zal xat dunyoga keldi. Xattotlikdan bexabar odamlar o'qiy olmaganlaridan keyin ko'ziga bu xat, tilsimli xatdek ko'rindi.

3. **Mahkam jaliy devoniy xati.** “Mahkam” deb tarjima qilganimiz arab tilida “mahbuk” shaklida kelgan bo‘lib, bu odatda chiroyli va mustahkam to‘qilgan narsaga nisbatan aytiladi. Bu nom bilan ataluvchi devoniy xatining turida, xattot harflar orasidagi bo‘shliqni qalam kengligicha qoldirgani va bu harflar orasini aniq o‘lchovda bo‘lishini ta’minlagani uchun shunday nomlanib qolgan.

4. **Devoniy al-humayuniy:** Ushbu xat turi faqat turkiy xattotlariga xos bo‘lib, badiiy rasmlar uchun ishlatilgan. Ayniqsa, sultonlar haqida sodir bo‘lgan lavhalar aks ettirilgan.

5. **Zavraqiy jaliy devoniy xati.** “Zavraq”-arabcha so‘z bo‘lib, “qayiqcha” ma’nosini anglatadi. Aksariyat hollarda juda go‘zal badiiy rasmlarni o‘z ichiga olgan xat turi bo‘lib, xuddi u yelkanlari, eshkaklari bo‘lgan kema tasviri bo‘lib (*4-ilova*), aslida biror oyat yoki hikmatli so‘zlar bitilgan bo‘ladi.

Devoniy xatining sanab o‘tilgan turlaridan tashqari yana hudud va davlatlar miqyosidagi farqlarini ham alohida aytib o‘tish lozim. Devoniy xati haqida izlanishlarimizda bizlarni alohida e’tiborimizni tortgan jihatlardan biri Buxoro xattotlari tamonidan devoniy xatida bitilgan yozma manbalardir. Buxoro amiri devonxonasining mohir xattotlari, ayrim yozishmalarni o‘zlariga xos raviyada bitganlar. Bunga Buxoroda XVIII asrda devoniy xatida Doniyolbek Atoliqqa yozilgan nomani misol qilish mumkin. (*4-ilova*)

Ma’lumki, xattotning ishi yuzaga chiqishi uning bir o‘ziga bog‘liq emas. Shu o‘rinda Buxoro xattotlarining kitobat qilishda kerak bo‘ladigan anjomlar borasida ham o‘ziga xos an’analari bo‘lgan. Bu haqda Buxoro xattotlik maktabining vakillaridan biri ustoz xattot Razzoqov Abdulg‘ofir hoji Buxoriy bilan suhbatlashdik. O‘zimizni qiziqtirgan barcha savollarga javob oldik va ushbu ma’lumotlarni quyida bayon qilamiz.

Siyoh qanday tayyorlash. Siyoh tayyorlashni o'ziga xos uslublari bor. Buxoro xattotlari siyoh tayyorlashni quyidagi tartibda amalga oshirganlar. Avval charvi yog'idan sham tayyorlab, yoqqan va yonayotgan sham ustiga chinni kosaning ichini to'ntarib qo'ygan. Kosada hosil bo'lgan qorakuyaga muza shirasi yoki guruch shirasi qo'shib tayyorlangan. Muza o'simligining guli kuydirilib keyin qaynatilgan, yoki muza mevasi qaynatilib qo'shilgan va o'zimizdagi daraxt yelimi qo'shib tayyorlangan.

Xattotlik qalami. Kitob ko'chirish uchun Hindistondan keltirilgan qora qamishdan foydalanilgan. Katta-katta xatlar yozish uchun alohida g'orov deb ataladigan, chilim uchun ishlatiladigan naysimon qamishdan foydalanilgan. Bundan ham kattaroq xat yozish uchun gujum yoki qayrog'och yoxud tol yo chinor daraxtlaridan tayyorlangan qalamlar ishlatilgan.

Kitobat usuli. Ma'lumki, xattotning matn ko'chirishi uchun eng avval yaxshi, sifatli qog'oz kerak. Samarqand va Buxoroda a'lo navli qog'oz ishlab chiqarilgan. Bu qog'ozlarni ishlab chiqarish usuli Abdulazizxon (1645-1680 y.) davrida kashf qilingan edi. Qog'oz ikki turli bo'lib, birinchisi "qog'oz abreshimiy" (hech qanday paxta tolasi qo'shilmay tayyorlangan o'ta pishiq, juda chiroyli, yaxshi ohor berilgan, toza va silliqlikda tengsiz qog'oz), ikkinchisi "qog'oz nimkatoni" (yarim ipakli bo'lib, ipak va kanop tolasining taxminan ellik foiz aralashmasidan tayyorlangan pishiq, salmoqli va yaxshi ohorli qog'oz). Shuningdek, turli qo'lyozmalarni ko'chirish uchun maxsus "haftrang" deb atalgan qog'ozlar va muqovaning ichki tomoniga qo'yish uchun "abri bahor" qog'ozlari ham ishlanardi.

Xattotning qurollari – "siyoh", "qora qamish qalam", "mistar" (transparat). Qalamning uchini chiqarish uchun "qalamtarosh", qalamning uchini kesish uchun yasalgan suyak – "qalamqati"dan iborat bo'lib, bularning hammasi maxsus "qalamdon"da turadi. Qamish qalam xattotning

asosiy yozuv quroli bo'lib xat, asosan, Hindistondan olib kelingan maxsus qora qamishlarda yozilgan. Sababi u juda qattiq, yozishga chidamli bo'lgan. Katta (jaliy) qalam qayrag'och, tol yog'ochlaridan tayyorlangan.

Qamish qalam tayyorlashda eng nozik va muhim jarayon qalam kesishdir. U to'g'ri kesilmaydi, balki qiyshiq kesiladi, ya'ni "unsiy", "vaxshiy" dan bir oz uzunroq bo'ladi. Qamishning uchi mukammal tayyorlanish shart.

Qamish qalamdan qog'ozga siyoh tommasligi hamda qalamda doim yetarli darajada siyoh bo'lishi uchun siyohdon (davotga) to'lguncha ipak los solinadi. Siyohdan to'lgan loslar qalamni yetarli miqdorda siyoh bilan ta'minlashga, kotibning bekam-u ko'st ishlashiga yordam beradi.

Xattot qo'lyozmani ko'chirishdan oldin o'z oldida turgan yaltiroq (varaqdagi) satrlar qancha bo'lishi kerakligini estetik talablarga muvofiq holda mulohaza yuritib, taxminiy belgilab oladi. Undan keyin qog'oz (varaq)ning hajmiga loyiq yoki shu ish uchun tayyorlangan "mistar" (transparant) tanlaydi. Mistarni qog'ozning ostiga qo'yib, toza qo'li bilan bosadi. Natijada, iplarning qog'ozga (varaqa) izi tushib, bu izlar esa maxsus chiziq o'rnida xizmat qiladi; mana shu chiziq (yo'l) bo'yicha matnning satrlari ko'chiriladi.

Islom shariatida, xususan hadisi sharifda jonli mavjudotlar, jumladan odamlarni va hayvonlarni tasvirini chizishga taqiqlar bo'lgani bois musulmon rassomlarning Qur'on va ilmiy kitoblarni ko'chirish, kitob hamda ibodatxonalarni bezashda xattotlik san'ati bilan faol ishtirok etganiga guvoh bo'lamiz. Boshqa din vakillari tasviriy san'at, rassomlikka sarflagan kuch-g'ayratlari, iste'dodlarini, musulmonlar xattotlik san'ati va uning rivojiga ishlatgan deyish mumkin.

Bugungi kunlarda kalligrafiya sohasida zamonaviy badiiy xattotlik turi alohida janr sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, arab kalligrafiyasida bu janrga e'tibor juda tez suratda o'smoqda. Ta'kidlash lozimki, badiiy

xattotlikda erkin ijod qilish uchun eng qulay xat turi ham aynan devoniy xatidir (6-*ilovaga* qarang).

O'zbekistonlik mashhur xattot Habibulloh Solih hazratlari ham bir necha xat turini ixtiro qilgangan bo'lsa, bularning asosi ham ko'proq Devoniy xat turiga o'xshash ekanining guvohi bo'lamiz (7-*ilovaga* qarang). Xulosa qilib aytish mumkinki, badiy xattotlik san'ati janrida yana-da samarali ijod qilish uchun eng muvofiq asos sifatida devoniy xati xizmat qilishiga shubha yo'q.

Bugungi kunda O'zbekistonda Devoniy xatida mohirona yoza oladigan zamondosh ustoz xattotlar talaygina bo'lib, ular haqida ham ozgina ma'lumot berishni lozim deb o'ylaymiz. Jumladan, toshkentlik xattot Salimjon Badalboev devoniy, riqo, nasx xatida, jaliy devoniy xatlarida juda mohir xattotlardan hisoblanadi. Ayni paytda yoshi 80 dan oshgan bu ustoz xattot hanuz ijoddan to'xtagani yo'q. Har yili respublika bo'yicha xattotlik ko'rgazmalarini tashkilotchilaridan hamda xat va unga doir maqolalari bilan ommaviy axborot vositalardina ham juda faoldir.

Savol va topshiriqlar:

1. Faqat turkiy xattotlarga xos bo'lib, badiiy rasmlar uchun ishlatilgan xat turi qaysi?
2. Oddiy devoniy xati bilan jaliy devoniy xatining qanday farqi bor?
3. Katta-katta xatlar yozish uchun ishlatiladigan qamish qanday nomlangan?
4. Buxoro xattotlarining kitobat qilishida kerak bo'ladigan anjomlari haqida gapirib bering.

Testlar:

1.Xatning qaysi turida xattot harflar orasidagi bo'shliqni qalam kengligicha qoldirgan?

- A) Devaniy ul-humayniy xati
- B) Jaliy devoniy xati

D) Mahkam jaliy devoniy xati

E) Zavraqiy jaliy devoniy xati

2. Hech qanday paxta tolasi qo‘shilmay tayyorlangan o‘ta pishiq, juda chiroyli, yaxshi ohor berilgan, toza va sillqlikda tengsiz qog‘oz qanday atalgan?

A) “qog‘ozi nimkatoni”

B) “qog‘oz abreshimiy”

D) “haftrang”

E) “abri bahor”

UMUMIY XULOSALAR

Xat va xattotlikning ma'nosi, paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, xususan, devoniy xat turi va uning qoidalari, ixtirochilari hamda ustozlari, qoldirgan asarlar va ularning nechog'lik ahamiyatli ekani darajasi o'rganildi.

Xulosa o'laroq aytish mumkin, devoniy xatini asosi, qoidalari, mezon va o'lchamlarining ilk ixtirochisi xattot Ibrohim Munifdir. Bu xat turi usmoniy sultonlarning yettinchisi bo'lgan Muhammad Fotih ibn Murod Soniy davrida ixtiro qilingan va rasmiy xat turi sifatida tanilgan. **Devoniy** xati usmoniylar asrida saroyning siri bo'lib, uning alifbosi, grafik o'lchamlari maxfiy tutilar edi. Shuning uchun ham boshqalar bu xatda bitilgan ma'lumotlarni o'qiy olmasdi. Bugungi kunda ham bu xat turidan xabardor bo'lmagan xattot va mutaxassislar ham, shu xatda bitilgan ma'lumotlarni o'qiy olmaydilar.

Devoniy xatining siri uzoqqa bormadi. Bu xat turining obro'si oshib ketdi va sultonlik, xonlik saroylari devonxonalarida hukmdorlarning farmonlari, o'zaro yozishmalari devoniy xat turida yuritila boshladi. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Jumladan:

- Sultonlar sodda, bezaksiz, hamma o'qiy oladigan oddiy xalq foydalanadigan xat turidan foydalanishni istamaydi. Aksincha, hukmdor toifa oddiy xalqdan kiyinishdan tortib barcha iste'mol turida farqli bo'lishga uringanlar. Xat turi ham bundan mustasno emas.

- Hukmdorlarga ma'lum bo'lgan maxfiy xat turlari ixtiro qilingan edi. Bu turdagi xat ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi juda muhim hisoblangan. Devoniy xati ham qaysidir ma'noda mazkur maqsadni ado etishda muhim rol o'ynar edi.

- Muhtasham, bezaklarni xush ko'radigan toifa uchun devoniy xat ayni muddao bo'lgan yozuv turi edi.

Mana shu kabi sabablarga ko'ra devoniy xati juda tez shuhrat qozondi. XX asrga kelib bu xat turi o'zining jozibasi, go'zalligi bilan barchani lol etdi. Shuning uchun ham bu xat turini o'zlashtirish ilinjida bo'lganlar soni ortib bormoqda. Xususan, devoniy xat turiga bag'ishlangan risolalar, xat turi bo'yicha ta'lim berishga mo'ljallangan xattotlik daftarlari nashrlardan chiqarildi. Bu xat turi bo'yicha mahoratda, ijodkorlikda yuqori cho'qqilarni zabt etgan xattotlar tarixi va ulardan qolgan asarlar haqida maqola hamda risolalar dunyo yuzini ko'rdi.

Devoniy xat turida ijod qilgan, bu xat turining yangi navlariga asos solgan juda ko'p ustoz xattotlar bo'lib, ularning mashaqqatli mehnatlari, tinimsiz izlanishlari va iste'dodlari sabab qisqa vaqt ichida alohida xat sifatida barchaning e'tiboriga tushdi. Devoniy xatining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan san'atkor xattotlarning tarjimai holi bilan tanishtirish, ular qoldirgan sohaga oid asarlarni o'rganish tadqiqotning muhim jihatlaridan biridir. Jumladan, marhum misrlik xattot Shayx Muhammad Abdulaziz ar-Rifo'iy haratlari, marhum Muhammad Sabriy al-Hiloliy Bag'dodiy, Qohirada ijod etgan marhum Mustafo G'azlonbek hazratlari va bularga qo'shimcha tarzda bir qancha xatotlarni ham zikr qilib o'tdik. Chunki, ular bu xat turidagi harflarga yangicha joziba, badiiy go'zal shakllar va qo'shimcha ziynat, ko'rk beruvchi alomatlarni ijod qilganlar. Bulardan mashhur xattot Mesad Huzayr Bursa'idiy, Muhammad Sa'id Haddad Misriy, Al-Hajj Zayid, Abdurrahmon Abush Misriy, Javvod Sabtiy, Jasim Najfiy va boshqalarni alohida zikr qilishni lozim ko'rdik.

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fani nuqtai nazaridan devoniy xatda bitilgan farmonlar, yozishmalarning mazmunini bilish, matn tarixini aniqlash uchun bu xat turining alifbosini, grafik o'lchovlaridan xabardor bo'lish dolzarb muammo hisoblanadi. Yechim sifatida devoniy xat turi tarixi, rivojlanish bosqichi va hozirgi kun bilan bog'liq taraqqiyotini

o'rganishga bel bog'lash fursati yetib keldi. Shu bois ham bu mavzuni yoritishga e'tibor qilindi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

PREZIDENT ASARLARI:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: Ўзбекистон, 2016. -56 б.

2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -104 б.

3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабр /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Абдулғафур Раззоқ Бухорий Хуснихат дурдоналари (Настаълик хати қоидалари). Тошкент. Мовароуннаҳр, 2008. 7,5 б.т.

2. Абдулғафур Раззоқ Бухорий. Мир Убайд Бухорийнинг мўъжизавий хати билан кўчирилган Қуръони карим. Мақола. Имом ал-Бухорий сабоқлари маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент, 2006. 4-сон.

3. Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маънолар таржима ва тафсири - Тошкент. 2009. – 617 б. Ahmad Rafiq. Tarixi umumiy. № 1760.

4. Али Саъдий. Қомуси Усмоний. //Тошбосма, ЎзФА ШИ Инв.№ 1698.
5. Ҳабиб Исфаконий. Хат ва хаттотон// Истанбул. 1887.Тошбосма, ЎзФА Абу Райхон Беруний номидаги ШИ– № 3640.
6. Идрис Махдум Рожий. Рисолаи хушнавсон. – Б. 260.
7. Ислом энциклопедия. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 320 б.
8. Исмоилий Ҳаққи. Тадрисоти ибтидоия. Инв. № 13177.
9. Исоқхон. Жамеъ ул-хутути Исоқхон//ТошбосмаИнв. № 621, 59.
10. Кайкавус. Қобуснома. Тошкент: Ўқитувчи. 1986.
11. Холназарова Л. XIX-XX асрнинг бошларида Бухоро амирлигида китобат ва кутубхоначилик тарихидан. Диссертация. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих Институти УДК 9(575.1) 02(575.1.) (09).
12. Мирсиддиқ Ҳишмат. Тазкират ул-салотин. Инв.№ 34.
13. Алимов У. Тафсири ирфон. 29-Жуз. Т.: Шарқ, 2012. – 383 б.
14. Алимов У. Тафсири ирфон. I-III Жуз. Т.: Шарқ, 2012. – 334 б.
15. Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан АбуАбдуллоҳ Ҳаким ат-Тирмизий. Наводир ул-усул фи аҳодис ар-росул. Дорун нашр. Байрут. 1992.
16. Муҳаммад Шарифжон Садри Зиё. Мажмуа. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ, 2193/XXIII. 255а
17. Муҳаммад Шарифжон Садри Зиё. Мажмуа. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – №1304.
18. Муҳаммад Шарифжон Садри Зиё. Мажмуа. //Қўлёзма. ЎзФА ШИ. №1304
19. Муҳаммад Шарифжон Садри Зиё. Тазкиратул хаттотийн. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – №1304.
20. Муҳаммад Тоҳир ибн Абдулқодир Курдий. Тарих ал-хат ал-арабий ва адабиҳи. Мактаба ал-Ҳилал. 1939 й.

21. Муҳаммад Таҳур Курдий. Ҳуснуд –дуаба фий ма варада фил хатти вал китоба. Миср. Мустафа саний нашриёти. 1938й.
22. Муҳаммад Тоҳир. Ажойиб ут-табоқот. Инв. № 2779.
23. Муҳаммад Хафид. Дуррул мунтахаббот. Инв. № 2282.
24. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент. Фан, 1971. 10.б.т.
25. Султонов Ў. Хатти Бобурий. Мақола, Мозийдан садо журнали Ўзбекистон. 3-4(19-20) 2003.
26. Ўзбекистон тарихи. Тошкент. Фан, 2007. босма табағи 6,4.
27. Оинаи ирфон, Муталлимин ва муаллимин, № 8777.
28. Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. Тошкент. Маънавият, 1997. 11,75. б. т. (Ўзбекистон Республикаси Фан ва Техника Давлат Қўмитаси Ресублика “Маънавият ва Маърифат” Жамоатчилиқ Маркази. Махпират Номидаги Ўрта Осиё Халқлари Тарихи Институти).
29. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жуз.Т.: Шарқ, 2008.
30. Воҳидов Ш, Чориев З. Садр-и Зия и эго библиотека. Тошкент. Янги аср авлоди, 2007. 11,0 б.т.
31. Sobirjon o'g'li S. Qalamdan to'kilgan go'zallik. Maqola <http://info.islom.uz/new/index.php/sanaat/item/157-qalamdan-tokilgan-gozallik>.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. O'zbek tilida:

1. Abdullaev I., Hikmatullaev H. Samarqandlik olimlar. - Toshkent: Fan, 1969. – B.104
2. Abu Tohirxoja. Samariya // Abu Tohirxoja. Samariya. Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Bayoniy. “Shajarai Xorazmshohiy”. Ibrat. “Farg‘ona tarixi”. – T.: Kamalak, 1991. – B.335
3. Ahmedov B. “Tarixdan saboqlar”. Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B.430

4. Alimov U., Mansurov A., Nuriddinov J., Mardonov I., Yo'ldoshxo'jaev H., Xo'jam A. "Xazrati Imom". – Toshkent: Movarounnahr, 2013. B.239
5. A'zamxo'jaev S., Islomov Z.M. "100 Markaziy Osiyo tarixiy yodgorliklari". – Toshkent: Yangi nashr nashriyoti, 2011. B.76
6. Babadjanov B. Rustamov U. "Shohi Zinda me'moriy majmuasining bitiklari (matnlar, tarjimalar)". Samarkand: Samarqand nashriyoti, 2015. B.80
7. Habibullaev N. "O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish tarixi". T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 1992. – B.96
8. Hasanov. A. "Islom tarixi". – T.: Toshkent islom universiteti, 2008 – B.256
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. "Markaziy Osiyoda Islom madaniyati". – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. B.383
10. Inoyatov A., Solieva M. "Zulmatdagi ziyokorlar". – Toshkent: Hilol Nashr, 2016. B.286.
11. Jo'zjoniy Abdulhakim Shar'iy. "Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari". – T.: TIU, 2002. – B.255
12. Mo'minov A. "Hanafiy ulamolarning Movarounnahr markaziy shaharlari hayotida tutgan o'rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar)". Tarix fanlari doktori dis. Avtoref. – T.: TIU. 2003. – B.46
13. Murodov A. O'rta "Osiyo xattotlik san'ati tarixidan". – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1971, B.195
14. Rahimjonov D. Abu Hafs an-Nasafiyning "Kitob al-qand fi ma'rifat as-Samarqand" asari-Samarqand hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba. Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –T.: 2003. – B.163
15. «O'zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Xorazm. 2017.
16. «O'zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Toshkent viloyati. 2017.
17. «O'zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Toshkent shaxri. 2017.
18. «O'zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Surhondaryo. 2017.

19. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Samarqand. SHoxi Zinda. 2017.
20. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Samarqand. Registon. 2017.
21. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Qoraqalpog‘iston Respublikasi. 2017.
22. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Qashqadaryo. 2017.
23. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Navoiy. 2017.
24. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Namangan. 2017.
25. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Farg‘ona. 2017.
26. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Buxoro. 2017.
27. «O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar»: Andijon. 2017.
28. “Islom ensiklopediyasi”. Z.Husniddinov tahriri ostida. Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.313
29. Zoxidov P.SH. “Me’mor olami”. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. B.237

2.Arab tilida:



30. Abu Bakr Bazzor. Al-Bahr az-zahhor. – Madina: Maktaba al-ulum val-hikam, 1988. – Juz- 2. – B.403.
31. Azhariy. Tahzib al-lug‘a. – Misr: Dor al-qovmiyya al-arabiyya 1964. – Juz- 12. – B.470.
32. Hoshim Muhammad Xattot. Qova‘id al-xotti val-arobiy. – Bag‘dod: Olam kutub, 1986. B.78.
33. Ibn Adiy. Al-Komil fi zu‘afa ar-rijal. – Bayrut: Dor al-fikr, 1988. – Juz. 7. – B.576.
34. Ibn Foris. Mu‘jam maqoyis al-lug‘at. – Bayrut: Dor al-fikr, 1979. – Juz. 3. – B.478.
35. Ibn Hajar Asqaloniy. Al-Mu‘jam al-mufahris. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 1998. – B.681.
36. Imom Abu Yusuf. Kitob al-osor / Abulvafo al-Afg‘oniy nashri. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. – B.267.

37. Nasafiy najmiddin Umar. Al-Qand fi zikr ulamo Samarqand. – Madina: Maktaba al-Kavsar, 1991. – B.623.
38. Nassor Muhammad Mansur. Xottu an-nasta'liq. – Iordaniya: Salt, 2013. Juz. 6. B.56
39. Mahdiy Sayyid Mahmud. Al-Xutut al-Arobiy. – Misr: Maktaba Ibn Sina, 2005. B.159.
40. Qattoniy. Fihris al-fahoris val-avsot. – Bayrut: Dor al-g'orb al-islamiy, 1982. – Juz. 1. – B.544.


WEB SAYTLAR


1. <http://www.raza.library>
2. <http://www.ziyouz.com>
3. <http://www.wikipedia.org>
4. <http://www.Google.ru>
5. www.buxoronoma.uz
6. <https://www.shid.com.ua/calligraphy-hutt/about-calligraphy.php>
7. http://www.orientalstudies.ru/rus/images/pdf/add1/RKKNV_1_1987_09_akimushkin.pdf
8. <https://culture.wikireading.ru/78800>
9. <https://www.arabic-calligraphy.com/arabic-calligraphy-styles/>
10. <https://www.rosettatype.com/blog/2016/05/24/Arabic-calligraphic-styles>
11. www.advantour.com
12. www.arabic.com
13. www.big-ufa.ru
14. www.e-tarix.uz
15. www.fikr.uz
16. www.google.com
17. www.kh-davron.uz
18. www.arabicc.com

19. www.muslimco.com









Devoniy xatida Doniyolbek Atoliqqa yozilgan noma. Buxoro XVIII asr Qog'oz, siyoh, suvbo'yoq. O'lchami 25x14





Xattot Habibullo Solihning ijodidan

مختصری تمام در هر یک از اینها که در این کتاب است

در این کتاب که در هر یک از اینها که در این کتاب است

بجز اینها که در هر یک از اینها که در این کتاب است

در هر یک از اینها که در این کتاب است

در هر یک از اینها که در این کتاب است

۹ ۸ ۷ ۶ ۵ ۴ ۳ ۲ ۱

أوصى رسول الله صلى الله عليه وآله

بني فخره من هذه الدنيا فاجتنب فاحش من الفاحش منها
 وحسن من حسنك ولا تغتر بكثرة مالك ولا فخر بكثرة عيال
 ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة
 ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة
 ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة ولا فخر بكثرة منعة

أوصى عبد الحكم وأبنة فقال

يا بني إذا عرضت لك إلى محبة الرجال عاجزة فاصب منها إذا عرضت لك
 وإن محبة زانك وإن قدمت بك مؤونة مالك أصحب منها إذا عرضت
 بك بغيرتها وإن رأى منك منة عنها وإن رأى منة منها
 أصحب منها إذا عرضت لك وإن سكت بك وإن سكت بك
 أصحب منها إذا عرضت لك وإن سكت بك وإن سكت بك
 لوجه الخطاط بدوي الديواني رقم (٥)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. XATTOTLIK SAN'ATI VA XAT TURLARI	
1- Mavzu: Arab xatining shakllanish	13
2- Mavzu: Movarounnahrda mavjud arab yozuvidagi xat turlari	26
II BOB. BUXORO XATTOTLIK MAKTABIDA DEVONIY	
YOZUVINING QO'LLANILISHI.....	35
3- Mavzu: Devoniy xatining yuzaga kelish tarixi.....	38
4- Mavzu: Devoniy xatining rivojlanish omillari.....	46
III BOB. DEVONIY YOZUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
5- Mavzu: Devoniy xatining grafik muvozanati (o'lchamlari).....	54
6- Mavzu: Devoniy xatining raviya va turlari.....	61
UMUMIY XULOSALAR.....	67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70
ILOVALAR.....	77
MUNDARIJA.....	87